

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”
Tarix fakulteti dekani
_____t.f.n. V.Ishquvvatov
2014 yil «_____»_____

5141500 – Tarix fakulteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”
bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Mirzayev Abdimumin Alisherovichning

“HOZIRGI DAVR GEOSIYOSATI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI”

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: “Milliy g‘oya va
ma’naviyat asoslari” kafedrası katta
o‘qituvchisi _____
c .f.n. X.Jumaniyozov

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari”
kafedrası mudiri_____f.f.n.M.A. Sobirova
2014 yil “_____”_____

Toshkent – 2014

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. HOZIRGI ZAMON GEOSIYOSATINI TAHLIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI VA JIHATLARI.

- 1.1. Zamonaviy geosiyosiy qarashlar va ularning halqaro munosabatlarga ta'siri.
- 1.2. XXI asr bo'sag'asida geosiyosiy maqsad va ustivor yo'nalishlarning o'zgarishi.

II. BOB MARKAZIY OSIYO'DA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH IMKONIYATLARI

- 2.1. Mustaqillikka erishgan davlatlarga mafkuraviy tazyiqlar
- 2.2. Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda O'zbekistonning o'rni.

III. BOB HOZIRGI DAVR GEOSIYOSATI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARINI TUSHUNTIRISHNING INTERFAOL OMILLARI.

- 3.1. Geosiyosiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida ta'lim tizimi oldidagi vazifalar.
- 3.2. Mavzu yuzasidan dars ishlanmasi

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH.

Muammoning dolzarbligi. XX asr nihoyasida mustamlakachilik siyosati xalqaro hayotda siyosiy voqelik sifatida butunlay inqirozga yuz tutdi. Mustamlaka xalqlar mustaqillikka erishib, o'zlarining mentaliteti va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, o'z milliy davlatlarini shakllantirishga kirishdilar. Jahon xaritasida, jumladan, Markaziy Osiyoda yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Ular dunyodagi boshqa mamlakatlar orasida o'z mavqeini mustahkamlashga intilmoqda. Bu davlatlar oldida muvaffaqiyatsiz, chippakka chiqqan tarixiy tajribaning fojiali oqibatlarini qisqa davr ichida bartaraf etish vazifasi turibdi"¹. Lekin mintaqadagi barqarorlik, xavfsizlik bilan bog'liq bir qancha muammolar mavjudki, ularni bartaraf etmasdan yuqoridagi maqsadlarga erishib bo'lmaydi. Chunki bizning hayotimiz, ertangi kunimiz bugun hal bo'lyapti.² Shunday qilib, muammoning dolzarbligi quyidagilar bilan bog'liq: Birinchidan, sobiq SSSRning barbod bo'lishi va mintaqada mustaqil kelishi bu zaminda yashayotgan xalqlarning taraqqiy qilishi uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Ikkinchidan, mintqa davlatlari o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin vaziyat tubdan o'zgardi. Jumladan, sobiq sho'rolar zo'ravonligi zamonida mustamlakachilik tazyiqidan qutulish, ozod bo'lish va mustaqil taraqqiy qilish mintqa xalqlarining orzu-umidlari edi. Uchinchidan, yovuz kuchlarning birini tugatmasdan ikkinchisining mintaqaga turli yo'llar bilan kirib kelayotganligi bu yerda yashayotgan xalqlar uchun shundoq ham murakkab bo'lib turgan vaziyatning yanada chuqurlashuviga olib kelmoqda. To'rtinchidan, Markaziy Osiyo tobora geostrategik kuchlarning kurash maydoniga aylanib bormoqda. Bu, avvalambor, mintaqaning geostrategik mavqei va tabiiy resurslarga boyligi bilan bog'liq. Bu haqida A.Tojubaev to'g'ri ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda Markaziy Osiyo global va regional ta'sirga ega davlatlarning, xalqaro ma'naviy, iqtisodiy strukturalarning kurash maydoniga aylanib bormoqda. Bu mintaqaning neft, gaz va boshqa mineral xom ashyo resurslariga boyligi bilan bog'liq"¹. Bu esa mintqa xavfsizligini ta'minlashni ham dolzarb qilib qo'ymoqda. Ya'ni, mintaqaning boy tabiiy resurslarini o'zgalar tomonidan talon-toroj qilinishining oldini olish va mintaqada kuchlarning o'zaro to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda xalqlarimizning xavfsizligini ta'minlash zaruriyatini kuchaytirmokda. Ayniqsa, mintaqaga o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qilayotgan mamlakatlarning soni ortib borayotganligi xatarli tus olmoqda. Bu haqida Prezidentimiz Islom Karimov to'g'ri

¹Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T. "O'zbekiston",1997, 3-4 betlar.

² Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12. – T.: "O'zbekiston". 2004. 269-bet.

¹ Tojubaev A. Rossiya i TSentralnaya Aziya. Mejdunarodnaya jizn. 1999. №3. s.94 -101.

ta'kidlaganidek: "Markaziy Osiyo o'zining jug'rofiy-siyosiy holati jihatidan kollektiv xavfsizlik tizimi izchil yo'lga qo'yilmagan mintaqa hisoblanadi. Biz Rossiya, Xitoy va Hindistonning, Sharq va G'arb mamlakatlarining bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari yuzaga chiqadigan mintaqaning bir qismimiz"². Shunday ekan, so'zsiz, bu mamlakatlar ushbu hududda o'z manfaatlarini izlaydilar. Mintaqada yetakchi mavqeiga ega. O'zbekiston omilini o'rganish mavjud muammolarni hal etishda kuchlarni o'zaro uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bu quyidagi omillar bilan bog'liq:

- O'zbekiston geografik jihatdan qulay joyda joylashgan va u mintaqaning geosiyosiy yadrosi hisoblanadi;
- davlat xom ashyo va energetika jihatidan mustaqil, iste'mol bozori uchun zarur bo'lgan ko'plab xom ashyo resurslariga ega;
- mintaqada mavjud bo'lgan davlatlar bilan chegaradoshligi, bu o'z navbatida O'zbekistonda sodir bo'ladigan har qanday jarayonning chegaradosh hududlarga tez tarqalish imkoniyatining mavjudligi bilan bog'liqligi ;
- O'zbekiston harbiy-siyosiy jihatdan muhim strategik hudud hisoblanadi;
- hudud tarixiy Movarounnahr ekanligi va unda turli integratsion markazlar joylashganligi va shu kabilar.

O'zbekiston mintaqada harbiy-strategik jihatdan muhim ahamiyat kasb etib, kuchlar muvozanatini ta'minlashda katta rol o'ynadi va u bugungi kunda Afg'onistonda mavjud muammolarni hal qilishda yetakchilik qilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'z geosiyosiy manfaatlarini himoya etishda xalqaro miqyosda optimal darajada qulay sharoitga erishish uchun kurash har bir mustaqil davlat uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu bois bu jarayonning muhim yo'nalishini tashkil etuvchi xavfsizlik mavzusi politologiya fanining dolzarb tadqiqot ob'ekti bo'lib kelgan va kelmoqda. Bu muammo doirasiga oid tadqiqotlarni chuqur o'rganishning nazariy asoslari Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi. Uning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli fundamental asarida yovuz kuchlarning mintaqamizdagi, shuning bilan bir qatorda, butun insoniyat boshiga solayotgan fojialarning global muammo darajasiga ko'tarilganligi asoslab berilgan.²

² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T. "O'zbekiston". 1997. 12-bet.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma'ruzasi.-T. "O'zbekiston"1993; Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T. "O'zbekiston".1997; Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz.-T. "O'zbekiston"2000; Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12. – T.:

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan kontseptual g'oyalar respublikamiz olimlari tomonidan keng o'rganila boshlandi. Jumladan, bir qator doktorlik, nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, monografiyalar va ilmiy maqolalar e'lon qilindi. Ular R.M. Alimov, R.Z.Jumaev, Sh.I.Paxrutdinov, F.Tolipov, S.Sh. Sharapova va boshqa bir qator tadqiqodchilarning asar va maqolalarida o'z ifodasini topdi³.

Tadqiqodning maqsadi. Tadqiqotning oldiga qo'ygan maqsadi Markaziy Osiyo mintaqasida mamlakatlarining taraqqiyotiga xavf solayotgan muammolarning ildizlari, kuchayish jarayonlari va ularni bartaraf qilishni ko'rsatib berishdan iborat.

Tadqiqodning vazifalari:

- xavfsizlik tushunchasini tahlil etish;
- xavfsizlik tizimi, ularning o'zaro nisbati va munosabatini tahlil etish;
- xavfsizlikni vujudga kelish sabablari va ildizlarini aniqlash hamda ularni hal qilishning dinamikasini ko'rsatish;
- zamonaviy geosiyosiy nazariyalar va ularni Markaziy Osiyo misolida tadbqiq qilish;
- XXI asr bo'sag'asida geosiyosiy maqsad va ustivor yo'nalishlarning o'zgarishi.
- zamonaviy geosiyosiy qarashlar va ularning halqaro munosabatlarga ta'siri
- O'zbekistonning mintaqada xavfsizlikni ta'minlash borasidagi olib borayotgan davlat siyosatini tahlil etish va uning yanada samaradorligini oshirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot ob'ekti. Markaziy Osiyoda vujudga kelgan yangi vaziyat, jahon mamlakatlarining Markaziy Osiyo mintaqasiga bo'lgan qiziqishlari, manfaatlari, unga qaratilgan siyosati, uning zaminida yuzaga kelgan xavfsizlik muammolarini tahlil qilish ushbu tadqiqot ob'ektini tashkil etadi.

Tadqiqot predmeti. O'zbekiston respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi qonun, I.Karimov asarlaridagi Markaziy Osiyoda havfsizlikni ta'minlashga qaratilgan g'oyalar, tegishli asarlar, BMT, SHHT, MDH va boshqa tashkilotlar tomonidan qabul qilingan ushbu tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asosi. Mazkur tadqiqotning nazariy va uslubiy asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlaridagi, nutq va maqolalaridagi xavfsizlikni ta'minlash muammolarni hal qilishga bag'ishlangan kontseptual g'oyalari tashkil

“O'zbekiston”. 2004; Karimov I.A. o'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – T.: “O'zbekiston” 2005.

³ Alimov R. TSentralnaya Aziya: obınost interesov. – T.: “Sharq”. 2005. Jumaev R. Yangi sinovlar oldidan. Imom al-Buxoriy saboqlari. 2001. №4. 272-275betlar, Paxrutdinov Sh. Tahdid tushunchasi: nazariya va amaliyot.-T.1998; Tolipov F. Bolshaya strategiya Uzbekistana v usloviyax geopoliticheskoy i ideologicheskoy transformatsii Tsentralnoy Azii. – T.: “Fan”. 2005; Sharapova S.Sh. Vneshnyaya politika Respubliki Uzbekistan: kulturno-istoricheskie i sotsialnie faktori . – T.: “Adolat”. 2000.

etadi. Shuningdek, Respublikamiz va xorijiy mamlakat olimlari tomonidan e'lon qilingan ilmiy tadqiqot ishlarida ilgari surilgan g'oyalardan keng foydalanildi.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi. Zamonaviy geosiyosiy nazariyalar va ularni Markaziy Osiyo misolida tadqiq qilish tahlil etildi va uning yuzaga kelish sabablari aniqlandi;

- geosiyosat tushunchasi va uning asosiy xususiyatlari tahlil etildi;
- xavfsizlik tizimi va unda mintaqaviy xavfsizlikning o'rni tahlil etildi;
- mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash dinamikasi ko'rsatildi;
- XXI asr bo'sag'asida geosiyosiy maqsad va ustivor yo'nalishlarning o'zgarishi.
- zamonaviy geosiyosiy qarashlar va ularning halqaro munosabatlarga ta'siri
- mintaq xavfsizligiga qarshi qaratilgan tahdidlarning kuchayib borish sabablari, ularga qarshi mintaq mamlakatlari va jahon hamjamiyati kuchlarini birlashtirish zaruriyati ilmiy asoslandi;

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Nazariy jihatdan olib qaraganda dissertatsiyada berilgan xulosalardan, takliflardan tashqi siyosat, tashqi siyosiy faoliyat, xavfsizlik tushunchalari bilan bog'liq muammolarni tadqiq etishda keng foydalanish mumkin. Amaliy jihatdan olib qaraganda, dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida, kollejlarda siyosiy fanlardan ma'ruzalar va mashg'ulotlar o'tkazishda keng foydalanish mumkin. Shuningdek, turli davlat va jamoatchilik tashkilotlari, ma'naviyat va ma'rifat bo'limlarida yoshlarni vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularda ogohlik tuyg'ularini shakllantirishda keng foydalanish mumkin.

BMI tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi ikkita bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I. BOB. HOZIRGI ZAMON GEOSIYOSATINI TAHLIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI VA JIHATLARI.

1.1. Zamonaviy geosiyosiy qarashlar va ularning halqaro munosabatlarga ta'siri.

Geopolitika yunoncha “geo”- yer, “politika”-davlatni boshqarish san’ati ma’nosini bildirib, hozirgi davrga kelib «Geosiyosat» deb yuritiladi. «Geosiyosat» tushunchasi G’arb tadqiqotchilarining faoliyati tufayli XIX asr bilan XX asr oralig’ida ilmiy muloqotga kiritildi. “Geopolitika” atamasini fanga birinchi marta shvetsiyalik siyosatshunos olim R.Chellen olib kirgan. Bu atama 1-jahon urushi arafasida keng qo’llanila boshlagan. O’sha davrda yashagan nemis olimi F.Rettsel (1844-1904) edi. U davlat siyosati va mamlakatning geografik vaziyati o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik va aloqadorlikning qayta qurilishiga zamin bo’ladigan yangi ijtimoiy sohaning nazariy asoslarini ishlab chiqish dolzarb masala deb hisobladi.. Rattsel kontseptsiyasida, “alohida makonni his etish” qobiliyati mavjud va shuning uchun o’z chegaralarini tezkor o’zgartirishga intilayotgan xalqlarga alohida tarixiy ahamiyat berilgan. K.Xausxofer (1869-1946) geopolitika tushunchasini bunday talqin etish an’anasini davom ettirib, mohiyatan tajovuzkorlik tabiatiga ega bo’lgan “nemis millati hayotiy makoni”ning imkoniyatdagi zaruriyati haqidagi gipotezani ishlab chiqdi, uning ekspansionistik, imperialistik jihatlariga alohida e’tibor qaratdi. Uchinchi Reyx rahnamolari tomonidan qurol qilib olingan geopolitika nazariyasining bu ko’rinishi, uzoq yillar davomida nemis geosiyosiy maktablarining akademik tadqiqotlarini badnom qilib keldi. Amerikalik admiral A.T.Mexenning (1840-1914) intellektual sxemalarida, dengiz va quruqlikda joylashgan davlatlar o’rtasida abadiy ziddiyat mavjudligi ko’rsatiladi, shuningdek, okean va dengiz kommunikatsiyalari va portlari ustidan olib boriladigan har tomonlama nazorat davlatga uzoq vaqt davomida dunyoda geosiyosiy ustunlikni ta’minlab berishi mumkinligi ta’kidlanadi. XX asrning 80-yillarida jahonning “bipolyar” geosiyosiy tuzilishining yaqqol inqirozi hamda keyingi taraqqiyotning “ko’p vektorlik” tendentsiyalarning oshib borishi, geopolitika g’oyasiga tamoman yangicha yondashuvlarning paydo bo’lishi, shakllanishiga sabab bo’ldi. Bu, xususan, frantsuz generali P.Galluaning “Geosiyosat qudrat manbalari” (1990) asarida o’z aksini topdi. Unda, dastavval geopolitika geografik determinizm siyosiy geografiya bilan aynan emasligiga e’tibor qaratilgan bo’lib, davlatning imkoniyatlari (kuch-qudrati) hududi, aholisi, geografik vaziyati, chegaralarining davomiyligi va konfiguratsiyasi, zahiralarining ahvoliga va boshqalarga bog’liqligi e’tirof etiladi. Geopolitikaning zamonaviy talqini, unga tashqi siyosatda, u yoki bu masala bo’yicha, ustunlikka erishish uchun faqat undan foydalanib qolmasdan, balki o’zicha mavjud bo’lgan davlatning muayyan moddiy, ijtimoiy va ma’naviy resurslari (yoki uning “geosiyosiy potentsiali”)ning ahamiyatiga alohida e’tibor berilishi bilan an’anaviy tushunishdan farq qiladi.

Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda jismoniy kuch ishlatish (zo'ravonlik) kerakligi haqida fikrlar paydo bo'ldi. Bunga ko'ra, kuchsizlar ustidan kuchlilarning g'olib kelishi hayot qonunining asosini tashkil etishi kerak edi. Bu g'oyalardan kelib chiqib, Germaniyada kuch ishlatish bilan hukmronlik qilish birinchi o'ringa qo'yila boshlandi. Nemis siyosiy arbobi O.Bismark Germaniyaning yakkayu yagona hududi uning armiyasidir, degan fikrni ilgari surdi.

“Biz yashayotgan davr qanday xususiyatlarga ega? So'nggi vaqtlarda jahonda yuz bergan, dunyoning jo'g'rofiy-siyosiy tuzilishini va xaritasini tubdan yangilagan o'zgarishlar hozirgi zamon va kelajak uchun qanday tarixiy ahamiyatga molik?”... Shu o'rinda Prezidentimiz butun dunyo miqyosida va mintaqalar darajasida vujudga kelayotgan tashqi munosabatlarni tanqidiy tahlil qilib, unga sabab bo'layotgan omillarni nomma-nom sanab o'tadi. Ular quyidagilar:

- bir qancha mamlakatlarda keskin siyosiy kurash borayotgan bir vaqtda demokratiya asoslarining qiyinchilik bilan qaror topish jarayonlarini tahlil qilish;
- etnik va millatlararo ziddiyatlarning saqlanib qolayotganligi;
- qotib qolgan mafkuraviy aqidalarning qadrsizlanishi hamda siyosiy va diniy ekstremizmning turli shakllari kuchayib borayotganligi;
- dunyoning katta qismida iqtisodi zaif, aholisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar saqlanib qolayotganligi;
- mamlakatlar, halqlar o'rtasida, bir mamlakat ichida esa ayrim ijtimoiy guruhlar o'rtasida iqtisodiy va ijtimoiy tabaqalanish kuchayib borayotganligi¹.

Yuqoridagilardan kelib chiqib yurtboshimiz quyidagicha savollarni ko'ndalang qo'yadi va shu savollarga ma'lum ma'noda javoblar keltiradi: “Xavfsizlikni qanday saqlab qolish lozim?”, “Barqarorlikni qanday ta'minlash darkor?”, “Halokatdan qanday saqlanib qolish mumkin?”

Prezidentimiz tomonidan qo'yilgan yuqoridagi savollarga javob tariqasida: “Tabiat va jamiyatni muqarrar halokatdan saqlab qolish umumbashariy vazifa bo'lib, davlatlar geosiyosatida va milliy mafkuralarda yangicha yondoshuvlvr vujudga kelgandagina boshqa sohalarda ham bu davr talablarini anglash va faoliyatini belgilash imkoniyati paydo bo'ladi, – deb professor Ibrohim Karimov.

G'arbiy Ovruponing bir qator mamlakatlaridagi texnika taraqqiyoti imkoniyatlari tufayli jahon maydonlarini bo'lib olish siyosati va uning oqibatlari ta'sirida tadqiqotlar boshlandi. Ma'lumki, bu davrga kelib, Angliya, Ispaniya, Frantsiya, Rossiya, Portugaliya, Italiya, Germaniya, Gollandiya kabi davlatlar tomonidan jahon maydonlari taqsimlab

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. T., 1997.4-b

olinib, globallashuv boshlanishi tufayli asrlar davomida o'z etnik kobig'ida xayot kechirib kelgan xalqlar, davlatlar o'z mustaqilliklaridan mahrum bo'ldilar va umumplanetar muammolar girdobiga tortildilar. Tabiiyki, tadqiqotchilarda bu muammoni g'arbparastlik ruhida hal etish mayli (tendentsiyasi) yetakchi yo'nalish bo'lib qoldi. Demak, geosiyosiy g'oyalar davlat ekspantsiyasi va imperiyachilik maqsadlari asosida vujudga keldi. Bunga ko'ra:

a) global bozorni asta-sekin shakllantirish, oykumen (yer sharining odamzot yashaydigan qismi)ni zichlantirish va jahon maydonlarini taqsimlab olishni «nihoyasiga yetgan» deb hisoblash;

b) sof xududiy makon ekspantsiyasi tugab, dunyoni bo'lib olish amalda oxirlangani;

v) buning natijasida Ovrupo davlatlari o'rtasida paydo bo'lgan omonat barqarorlikni boshqa qit'alardagi «bekik» olamga o'tkazish;

g) tarix Ovrupo tarixi bo'lishdan to'xtab, endilikda u umumjahon tarixiga aylana boshlagani;

d) shunday omillarga binoan, keyincharoq tamal toshiga aylangan siyosiy realizm uchun halqaro maydonda kuch ishlatishga (zo'ravonlikka) tayangan siyosatning nazariy asoslarini yaratish ko'zda tutilgan edi.

Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda jismonan kuch ishlatish kerakligi haqida g'oyalar paydo bo'lib, mafkura vositalari orqali Germaniyada bosqinchilik, kuch ishlatish va hukmronlik qilish kahramonlik darajasiga ko'tarildi. F. Nauman markazi Germaniya bo'lgan Ovrupo ittifoqi kerakligi, u «Planeta qo'shma shtatlari» uchun asos bo'lishi to'g'risidagi kontseptsiyani ilgari surdi. Xausxof davlatning eng muhim harakatlantiruvchi kuchi uning hayotiy «bo'shliqlar bilan ta'minlanishi bilan bog'liq», degan g'oyani ilgari surdi. U Markaziy Ovruponi Germaniyaning tayanchi hisoblab, Sharqni german hududiy ekspantsiyasining asosiy yo'nalishi, deb hisobladi. U dengiz davlatlarining zaiflashuvi Germaniya yetakchi bo'lgan Ovrupo tartiblarini o'rnatish imkoniyatlari vujudga ksltirganini, bu g'oyalar jahon tartibotlari sistemasi uchun negiz bo'lishi kerakligini «isbotlamoqchi» bo'ldi.

“Geosiyosatdagi g'arbparastlik mayllari XX asrda 2 ta jahon urushi kelib chiqishi uchun g'oyaviy turtki bo'lib, million - million odamlarning yostig'i qurishi, shahar va qishloqlarning vayronaga aylanishiga olib keldi. Bundan ma'lum bo'ladiki, har qanday g'oya, jumladan vayronkor, yovuz g'oyalar ham kuchli, ta'sirchan mafkura orqali odamlarda harakat birligini vujudga keltirib, insoniyat boshiga behad kulfatlar solishga sabab bo'lishi mumkin ekan”¹.

Biz yashayotgan davr axborot kommunikatsiyalar bag'oyat rivojlangan, dunyoning hamma joyidagi ma'lumotlar tez yoyilayotgani bilan farqlanadi. Bunday fikrlar, g'oyalar, qarashlar xilma-xilligi, rang-barangligi sharoitida yashash bir tomondan quvonchli, ikkinchi tomondan ayanchlidir.

¹ Karimov I. Noosfera: geosiyosat va mafkura. T., “FAN” , 2007. 106-107 b

Zero, jamiyat taraqqiyoti va inson kamolotiga xizmat qiladigan g'oyalar bilan birga xalqlar, millatlar orasiga rahna soladigan, odamlarni, ayniqsa yoshlarni to'g'ri yo'ldan ozdiradigan, ularda hayvoniy hirsilarni qo'zg'otadigan, toshbag'irlik, inson taqdiriga befarqlik his-tuyg'ularini rivojlantiradigan qarashlar tezda qaror topib qolmoqda. Bunday sharoitda milliy g'oya va mafkuraga ehtiyoj oshib bormoqda. "Albatta, - deydi Prezident Islom Karimov, - biz fikrlar va qarashlar rang-barangligi printsipli tarafdorimiz. Ammo bu fikr va qarashlarni birlashtiradigan, ularning mushtarak jihatlarini uyg'unlashtiradigan yagona mezon borki, bu milliy g'oya va milliy mafkuradir"¹.

Ikkinchi jahon urushi davrida AQSHda tashqi siyosat va jahon tartibotlarining yangi nazariyasini yaratish kuchaydi. Bunday yondoshuvlar markazida Amerika jahonda alohida rol o'ynashga da'vat etilgan, degan kontsepsiya yotardi. An'anaviy qarashlardan kelib chiqib, AQSH tadqiqotchilari «geosiyosatda yetakchi kuch omili» bo'lishi kerak, deb hisobladilar. F. Straus - Xyupe «geosiyosat harbiy stratekka qay yo'l bilap osonroq nimani va qanday qo'lga kiritilishini anglashga yordam beradigan sinchiklab ishlab chiqilgan rejani tavsiya etishdan iboratdir», dedi. «Gitlarning global tafakkurining kaliti, -dedi u, - German geosiyosatidir». U AQSH tashqi siyosatida butun Yevroosiyo bilan munosabat yotishi zarurligini aytadi.

Spaykman Shimoliy Amerika havzasi, Ovrupo sohillari va Ovrupoosiyo Uzoq Sharqidan iborat jahonda uchta yirik markaz bo'lishi to'g'risida fikr yuritadi. U Hindiston timsolida 4-markaz bo'lishi ehtimoli borligini nazarda tutadi. AQSH tadqiqotchilari 2-jaxon urushidai keyin Buyukbritaniya bilan mustahkam ittifoqda bo'lishdan boshka iloj yo'qligiga estiborni qaratadi. «Kimki Rimlendni nazorat qilsa, u Yevraziyani nazorat qila oladi, kimki Yevraziyani nazorat qila olsa, u butun dunyo taqdirini nazorat etadi», - deydi u. G. Uaytjert «urushdan so'ng Amerika Yevraziyani imperializmning barcha shakllaridan ozod etishi va u joyda albatta amerikacha erkinlik va demokratiyani qaror toptirishi kerak», - deydi.

2-jahon urushida ko'pchilik geosiyosat bo'yicha mutaxassislar Gitler rejimini qoraladilar, shu asnoda geosiyosat «sovuq urush» tutquniga aylandi. 2 ta harbiy - siyosiy blok o'rtasidagi qarama - qarshilik g'oyaviy-mafkuraviy tus oldi. Natijada geosiyosatning hududiy aspekti noto'g'ri talqin etildi va u ma'lum darajada 2 sistema va blok kurashining mafkuraviy imperativiga bo'ysundirildi. Yangi vaziyat geografik-hududiy determinizmning jiddiy tahririni taqoza etadi, degan hulosaga kelindi.

Har bir jamiyat ijtimoiy guruhlar, sinflar, davlatlardan tashkil topadi, demak, ularning o'z oldilariga qo'ygan aniq maqsadlari va o'z ijtimoiy mavqelariga muvofiq manfaatlari borki, ana shular tufayli ishlab chiqarish mexanizmi harakatga kelib, odamlarining umumiy faoliyati yuzaga

¹ "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 1999 yil. 21.26/06

chiqadi. Bu holatni hisobga olmay tuzilgan har qanday ilmiy bashoratning istiqboli yo'qdir. Zero, pirovard oqibatda odamlar iqtisod, ishlab chiqarish uchun yashamaydilar, balki, iqtisod insonlar ehtiyojini qondirish uchun zarurdir.

“Hozir tsivilizatsiyaning barcha yo'nalishlari bo'yicha globallashuv jarayoni yuz berayotganligi olimlar va siyosiy arboblarning o'rtasida shubha uyg'otmaydi. Biroq ushbu jarayonlarning rivojlanishiga asos bo'layotgan sabablar masalasida turli xil taxminlar, qarashlar mavjud”¹.

Hozirgi ilmiy adabiyotda globallashuv murakkab, jahon hamjamiyati hayotining turli sohalarini qamrab oluvchi jarayon sifatida baholanadi². Globallashuvning davlat rivojlanishiga ta'siri bir xil emas, bir tomondan, globallashuv «uning suverenitetini kamaytiradi» va «uning resurslarini cheklaydi»³, boshqa tomondan – jahon maydonida raqobatning hamda dunyoning nazoratsizligi va boshqarib bo'lmazligidan kelib chiqayotgan tahdidlarning kuchayishi sharoitida milliy davlatlarning roli oshib bormoqda⁴.

Xalqaro munosabatlarning globallashuvi muammosi asta-sekin eng yuksak darajalarda o'tadigan ko'plab ikki tomonlama uchrashuvlarda eng asosiy (ustun) muammo sifatida baholana boshlandi. Shu jihatdan qaraganda, “sakkizlik” mamlakatlari rahbarlarining 1999 yil yozida Germaniyaning Kyoln shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvi Yakuniy kommyunikatsiyaning ikkinchi bandi ayniqsa, katta ahamiyatga ega. Unda globallashuv jarayoniga rasmiy ta'rif berilgan.

Birinchidan, globallashuv g'oyalar kapital, texnika va tovarlarning butun dunyo bo'ylab oqishidagi oqibatlarni va miqyosga ega bo'lib borayotgan murakkab jarayon sifatida baholangan.

Ikkinchidan, globallashuv ayrim jamiyatlardagi turli xalqlarni nihoyatda yaqinlashtirgan ochiqlik tufayli yuzaga kelgan tub o'zgarishlar bilan bog'liq.

Uchinchidan, globallashuv borgan sari kuchayib borayotgan ochiqlik va jadallik natijasi sifatida butun yer yuzida hayot darajasining yuksalib borishiga va qashshoqlik darajasining ancha pasayishiga yordam beruvchi shart-sharoit deb qaraladi.

To'rtinchidan, globallashuv integratsiyaning ishlab chiqarish samaradorligini rag'batlantirish, imkoniyatlarni kengaytirish va iqtisodiyotni o'stirish evaziga qo'shimcha ish joylari yaratishga imkon berib ulgurgan va bunda davom etadigan yangi shakli sifatida qaralmoqda.

¹ Qobilov Sh.R. Globallashuv va xavfsizlik. T., “Akademiya”. 2006.

² Azroyants E.A Globalizatsiya: katastrofa ili put k razvitiyu? Sovremennye tendentsii mirovogo razvitiya i politicheskie ambitsii. M., 2002.9-b

³ Globalizatsiya v Rossii. Problemi demokratcheskogo razvitiya. – M., 2004 g. s45

⁴ Krasin Yu.A. Razmishleniya o Rossiyskoy demokratii v globalizatsionnyy mire: retsi.// Mirovaya ekonomika i mejdunarodnye otnosheniya. 2004 g - №12. – s 64.

Beshinchidan, globallashuv axborot sohasidagi inqilob bilan chambarchas bog'liq. Bu inqilob esa, o'z navbatida, yangi jamiyatga o'tishning shart-sharoiti hisoblanadi. Ya'ni jahon tsivilizatsiyasi industrial va postindustrial jamiyatdan axborotga asoslangan jamiyatga o'tish printsiplarga borgan sari ko'proq amal qilmoqda.

Oltinchidan, globallashuv turli madaniyatlar va qadriyatlarning borgan sari kuchayib borayotgan o'zaro ta'siri sifatida demokratik jamiyatlar qurish, inson huquqlari va asosiy erkinliklarning kafolatlarini shakllantirish printsiplari ifodalanadi.

Ettinchidan, globallashuv ayrim kishilar, oilalar va elatlar uchun yashash joyini o'zgartirish va moliyaviy noaniqlik bilan bog'liq xavf-xatarning ortishida namoyon bo'ladigan muayyan tahdidlarga ham ega¹.

1.2. XXI asr bo'sag'asida geosiyosiy maqsad va ustivor yo'nalishlarning o'zgarishi.

XX- asrning o'ttizinchi yillariga kelib millatlar va elatlar, mamlakatlar va davlatlar o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga qadam qo'ydi. U yoki bu mamlakatning ravnaqi davlatdan o'z mamlakati miqyosidagina emas, o'zga mamlakatlar miqyosida xam keng ko'lamda ijtimoiy faoliyat ko'rsatishni talab qila boshladi. Buning natijasida jaxonda geografik xududlar uchun kurash boshlanib ketdi. Biroq endi geografik xududlarni egallashning o'zi kifoya qilmas edi. Endilikda o'zga mamlakatlarning e'tiroziga javoban o'z mamlakatining ma'lum geografik xududga bo'lgan da'vosini asoslab berish xam zarur bo'lib qoldi.

Ko'rinib turibdiki, xalqaro munosabatlar geosiyosiy maqsadlar va yo'nalishlarni o'zgartirib yuborgan bo'lsa, o'zgarib ketgan geosiyosiy maqsadlar xalqaro munosabatlarning o'ziga aks ta'sir ko'rsatdi. Endilikda geosiyosatning asosiy maqsadi o'z mafkurasini maxv etilishi zarur bo'lgan geografik xududga singdirish bilan bog'lanadigan bo'ldi.

Xususan, 1930-yillarga kelib insoniyatning kelajakdagi taraqqiyotini asoslab berishga intilgan uch asosiy siyosiy-mafkuraviy yo'nalish o'rtasida ashaddiy kurash avj olib ketdi. Bu uch yo'nalishni jamiyatning asosiy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy negizlarini saqlab qolgan xolda tub isloxotlar o'tkazishni targ'ib qiluvchi sotsial-reformizm, jaxonda yangi ierarxik tartib o'rnatish va uni oliy irq bo'lgan nemis millatiga bo'ysundirishni targ'ib qiluvchi fashizm, jamiyatdagi moddiy va ma'naviy ne'matlarni ijtimoiy inqilob yordamida qayta taqsimlash va tenglik printsiplariga asoslangan yangi jamiyat barpo etishni targ'ib qiluvchi kommunizm mafkuralari tashkil etdilar.

¹ Qobilov Sh.R. Globallashuv va xavfsizlik. 6-7 b

Ushbu mafkuralar o'rtasidagi kurash ayniqsa ikkinchi jaxon urushi yillarida yaqqol namoyon bo'ldi. Shu bois ikkinchi jaxon urushining ungacha bulgan boshqa urushlardan (aftidan, XVI asrdagi salb yurishlari bundan mustasno bo'lsa kerak) asosiy farqi shunda bo'ldiki, unda an'anaviy siyosiy-xarbiy omillar qatorida mafkuraviy komponent xam xal qiluvchi rol o'ynadi. Ushbu urush nafaqat geografik xududlarni egallash maqsadida, balki o'z turmush tarzini, qadriyatlari sistemasini, boshqaruv shaklini, bir so'z bilan aytganda, o'z mafkurasini boshqa xalqlarga singdirish maqsadida xam olib borildi. Ajablanarli joyi shundaki, insoniyat boshiga mislsiz kulfatlar keltirgan va yana keltirishi mumkin bo'lgan nemis fashizmiga qarshi bir-biriga yot bo'lgan ikki mafkura (sotsial reformizm va kommunizm) tarafdorlari ittifoq tuzdilar. Ushbu ittifoq xar ikkala mafkura uchun qaysidir ma'noda umumiy bo'lgan komponentga asoslandi. Xususan, butun dunyo proletarlarining tengligini e'tirof etgan kommunistik internatsionalizm inson xaq-xuquqlari va erkinliklarini ulug'lagan liberal baynalmilliylik bilan xamoxang edi. Fashistik mafkura esa aynan ana shu baynalmilliylikni inkor etar va natsional-shovinizm xamda rasizmni targ'ib etardi.

Ikkinchi jaxon urushi nixoyasida Germaniya va uning ittifoqchilarining tor-mor etilishi oqibatida fashizm samarali mafkura sifatida jaxon arenasidan tushdi. Asosiy muqobil mafkuralar sifatida ijtimoiy-reformistik kapitalizm va revolyutsion sotsializm (kommunizm) saqlanib koldi. Ushbu mafkuralar kurashi davomida ikki qutbli dunyo vujudga keldi. Buning pirovard natijasida geosiyosatning asosiy maqsadi kishilar ongi uchun kurashishdan iborat bo'lib qoldi, uning asosiy yo'nalishlarini esa o'z mamlakati tanlagan taraqqiyot yo'lining to'g'ri ekanligini asoslab berish, o'z mafkurasi tarafdorlarini ko'paytirish, qarshi mafkuraning tarqalishi va rivojlanishiga yo'l bermaslik tashkil etdi.

Xam sotsial-reformizm, xam kommunizm tarafdorlari o'z qudratlari va xarbiy imkoniyatlarini o'zlari tanlagan yo'lning afzalliklarini targ'ib etishga safarbar qildilar. Butun dunyo ikki g'oya, ikki mafkura kurashi maydoniga aylandi. Sovuq urushning o'zi siyosiy va iqtisodiy sistemalar barqarorligi va mustaxkamligini sinovdan o'tkazuvchi imtixoniga aylandi.

Ikki qutbli dunyo sharoitida "Sharq" va "G'arb" tushunchalarining o'zi mafkuraviy o'lchov darajasiga ko'tarildi va geografik tushunchalardan siyosiy-mafkuraviy kategoriyaga aylandi. Aynan mafkuraviy o'lchov ikki qutbli dunyoning asosiy mezoni bo'ldi. Aynan mafkuraviy o'lchov strategik imperativ darajasiga ko'tarildiki, jaxonning boshqa mamlakatlari shu o'lchov asosida ikki qutb - SSSR va AQSH atrofida birlasha boshladilar. Shu sababga ko'ra Uzoq Sharqda joylashgan Yaponiya G'arb dunyosining tarkibiy qismiga aylandi.

Albatta, jaxonning uch dunyoga bo'linishi ushbu nuqtai nazarga ayrim o'zgartirishlar kiritdi. Birinchi dunyo deb Yevropa va SHimoliy Amerika, shuningdek Yaponiya va Osiyodagi iqtisodiy taraqqiyotga erishgan ayrim mamlakatlar tan olindi. Bu mamlakatlar kapitalistik taraqqiyotning

ilg'or esheloni edi. Mazkur yurtlarning birinchi dunyo deb atalishiga jiddiy sabablar bor edi: ular SSSR tashkil topguniga qadar shakllanib bo'lgan va yevropotsentrik dunyoning oldingi o'rinlarini egallab olgan edilar. Garchi Sovet Ittifoqi jaxon xaritasida 1917 yilgi oktyabr inqilobining sharofati bilan paydo bo'lgan bo'lsada, ikkinchi dunyo ikkinchi jaxon urushidan keyingina shakllandi.

Gap shundaki, SSSR xalqaro siyosiy munosabatlarga XX asrning 30-yillari oxiriga kelibgina jiddiy ta'sir ko'rsata boshladi. Qonli fuqarolar urushi, uning oqibati bo'lmish ocharchilik, iqtisodiyot borasida amalga oshirilgan ko'plab bema'ni tajribalar, resurslarning uzoq muddat nooqilona sarflanishi, keng miqyosdagi qatag'onlar SSSRga o'z mafkuraviy-siyosiy mavqeini mustaxkamlashga xalal berardi. Biroq gitlercha Germaniyani tor-mor etgan Sovet Ittifoqi ikkinchi jaxon urushini qudratli xarbiy-siyosiy imperiya sifatida yakunladi. Natijada XX asrning o'ttizinchi yillarida SSSR kapitalistik dunyo uchun faqat mafkuraviy taxdid solgan bo'lsa, ikkinchi jaxon urushidan keyin real xarbiy taxdid sola boshladi. Boz ustiga, fashistik qullikdan xalos bo'lgan Sharqiy Yevropa mamlakatlari, undan keyin qator Osiyo mamlakatlari taraqqiyotning sotsialistik yo'lini tanladilar. Shu ko'yi jaxon sotsialistik tizimi dunyoga keldi.

Ayni paytda kolonial imperiyalarning inqirozga yuz tutishi oqibatida jaxon xaritasida yangi mustaqil davlatlar vujudga keldilarki, ular o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy-siyosiy xususiyatlariga ko'ra yuqoridagi ikki dunyoning birortasiga xam mos tushmas edilar. Ushbu mamlakatlar qator umumiy xususiyatlarga ega edilar. Iqtisodiyotning qoloqligi, ijtimoiy-sinfiy tarkibning zaifligi, qishloq xo'jaligining ustivorligi, milliy tadbirkorlikning rivojlanmaganligi, an'anaviy patriarxal va urug'chilik strukturalarining saqlanib qolganligi shular jumlasidandir. Ushbu mamlakatlarni yuqoridagi ikki blokdan ajratish maqsadida uchinchi dunyo deb atay boshladilar.

Iqtisodiy va moliyaviy yordam ilinjida uchinchi dunyo mamlakatlari u yoki bu blok liderlarining e'tiborini jalb etish uchun musobaqaga kirishib ketdilar. SSSR va AQSH uchun esa ushbu rivojlanayotgan mamlakatlar o'ziga xos saxna vazifasini o'tadiki, bu saxnada xar bir tomon o'z ta'sirini o'tkazish uchun mafkuraviy va siyosiy kurash olib bordi. Ushbu kurash ayrim xollarda lokal va mintaqaviy urushlarga aylanib ketardi. Masalan, XX asrning 60-yillari va 70-yillari boshlarida Janubi-SHarqiy Osiyoda, 70-80 yillarda Angolada ana shunday urushlar bo'lib o'tdi. Ikki qutbli dunyo va sovuq urush sharoitida mamlakatni tashqi taxdidlardan mudofaa qilish masalasi ikki xarbiy-siyosiy bloklarning ko'plab funktsiyalaridan biri edi, xolos. Asosiy e'tibor "ichki" muammolarni bartaraf qilishga qaratilgan edi. Ushbu "ichki" funktsiya AQSH uchun ittifoqdosh mamlakatlarni o'z xukmi ostida ushlab turish, G'arbiy Yevropa bilan Shimoliy Amerika o'rtasidagi aloqalarni mustaxkamlashdan iborat bo'lgan bo'lsa, SSSR uchun jaxon sotsialistik tizimini nazorat ostida saqlash, uni o'zga sistemalar ta'siridan muxofaza qilish bilan

bog'liq edi. Shu sababdan, xar ikkala mamlakat xam o'zini turli xalqlar orzu-umidlari va ehtiyojlarining ifodachisi deb xisoblardi. O'z faoliyatlarining mafkuraviy asoslarini ishlab chiqqan AQSH o'zini erkin dunyo ximoyachisi deb, SSSR esa tinchlik, demokratiya va sotsializm tayanchi deb e'lon qildi.

Buning pirovard natijasi o'laroq ikki blok o'rtasidagi ixtilof katta miqyosdagi kurashga aylanib ketdi. «Sharq va G'arb o'rtasidagi kurashning uzoq muddatli xarakteri va potentsial xavfi, - deyiladi, masalan, "Uch tomonlama komissiya" ma'ruzalaridan birida, xozirgi zamonning ikki qudratli davlatlari orasidagi ziddiyatdan xamda turli xadriyatlarga asoslangan ikki qarama-qarshi siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy sistemalar o'rtasidagi kelishmovchiliklardan kelib chiqadi. Shu boisdan xam Sharq va G'arb o'rtasidagi kurash uzoq vaqtdan beri butun dunyoning markaziy muammosi bo'lib turibdi.»¹

Ikki qudratli davlat o'rtasida avj olib ketgan mafkuraviy kurash, bir mintaqada sodir bo'lgan bir ijtimoiy-siyosiy voqeaning turlicha talqin etilishi oxir-oqibatda shunga olib keldiki, ikki qutblilik ikkinchi jaxon urushidan keyingi dunyoning moxiyatini tashkil etdi. Xar ikkala tomon bir-biridan qo'rqib, xavfsirab yashadi. Buning oqibatida NATO va OAV kabi qarama-qarshi siyosiy kuchlar dunyoga keldiki, ular bloklarning xavfsizligini ta'minlovchi omil vazifasi o'tay boshladi.

Albatta, qo'shilmaslik xarakatining rivojlanishi, Yaponiya va GFR kabi iqtisodiy jixatdan qudratli mamlakatlarning shakllanishi, Xitoyning yadro davlatiga aylanishi, turli mintaqalarda millatchilikning vujudga kelishi ushbu ikki-qutblilik sistemasiga jiddiy o'zgartirishlar kiritdi. Biroq, bundan qat'iy nazar, jaxonning muxim siyosiy masalalari ikkiqutblilik printsiplari asosida xal etilardi.

Ikki qutbli dunyo sharoitida jaxondagi vaziyat bir qadar tushunarli edi. SSSR o'z tashqi siyosatining strategiyasi va asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqayotganida AQSHning real dushman ekanligini, AQSH esa SSSRning asosiy raqib ekanligini inobatga olardi. "Nyu-York tayms" gazetasining sharxlovchisi T.Fridman yozganidek, Kremlb "AQSH siyosatining yo'lchi yulduzi edi". Siyosiy arboblal shamolning qayoqdan esayotganligini (ya'ni Moskva qaysi pozitsiyada turganini) bilsalar kifoya edi, AQSH darxol shu pozitsiyaga teskari bo'lgan nuqtai-nazarni qo'llab chiqishi aniq bo'lardi-qolardi. SSSRdagi vaziyat xam shunga o'xshash edi.

Jaxondagi bunday vaziyat barcha xalqlarni yurak xovuchlab yashashga majbur etardi. Butun dunyo turli manfaatlar soxasiga bo'lib chiqilgandiki, u yoki bu mintaqada yuz bergan urush yoki kelishmovchilik ikki qutb orasidagi umumsayyoraviy kurashning tarkibiy qismi sifatida baxolanardi.

¹ Azkael I.R., Loeweentnal R. et al.. An Overview of East-West relations. The Trilateral comission. – Washington, 1987.

XX asrning to'qsoninchi yillari boshiga kelib Sovet imperiyasining barxam topishi ikki qutbli dunyoning xam nixoyasiga yetganidan xabar berdi. Jaxonning o'nlab mamlakatlariga qanday faoliyat ko'rsatishni xukm etib turgan qudratli mafkuralardan biri jaxon saxnasidan tushdi. "Sharq" va "G'arb" tushunchalarining mafkuraviy mazmuni barxam topdi, G'arb olamiga daxldor topilgan Yaponiya yana Sharqqa qaytdi. Bir qaraganda, mafkuraviy kurashning o'zi o'tmishga yuz tutgandek edi. Aslida esa mamlakatlarning geosiyosati maqsadlari o'zgargandi, xolos. Endilikda geosiyosiy maqsadlar "muayyan davlatning o'z mavqei va ta'sirini o'zga xudud va mintaqalarda kuchaytirishga qaratilgan siyosatni ifodalaydi".¹

Bugungi kunda "jaxon xamjamiyati xalqaro munosabatlar soxasiga demokratiya, o'zaro xurmat va xamkorlik tamoyillarini qaror toptirish uchun kurashmoqda. Bunday sharoitda zo'ravonlik qilish, xarbiy kuch ishlatish va xatto iqtisodiy iskanjaga olish qat'iy qoralanishi aniq. Lekin o'z g'arazli maqsadlariga yetishni ko'zlayotgan turli kuchlar geopolitikaning eng ta'sirchan vositasi sifatida mafkuraviy quroldan keng foydalanmoqda, odamlar ongiga ta'sir o'tkazishning tuban va makkor usullarini qo'llamoqda".² Ko'rinib turibdiki, mafkuralar urushi jaxonda susaygani yo'q, u o'zgacha qiyofa va shakl kasb etdi, xolos. Bunday vaziyatda eng mushkuli kushod endigina siyosiy mustaqilligini qo'lga kiritgan mamlakatlar zimmasiga to'g'ri kelmoqda.

Yuqoridagi muloxazalarimizdan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. XX asr bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli mafkuralar kurashi davri bo'ldi. Bunga keskin o'zgarib borgan xalqaro vaziyat zamin tayyorladi. Xususan, xalqaro vaziyatning o'zgarishi geosiyosat maqsadlari va yo'nalishlarining o'zgarishiga sabab bo'ldi. O'z navbatida, geosiyosiy maqsadning o'zgarishi yangi xalqaro vaziyatning yuzaga kelishiga poydevor yaratdi.
2. XX asr uch qudratli mafkuraning (sotsialre-formizm, kommunizm, fashizm) kurashi ostida kechdi. Shuningdek, qarama-qarshi bo'lsada, umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan sotsial-reformizm va kommunizm millionlab kishilarni nemis fashizmiga qarshi kurashga chorladi. Buning oqibatida nemis fashizmi ideologiyasi barxam topdi. Ikkinchi jaxon urushidan keyingi yillar esa ijtimoiy-reformistik kapitalizm va revolyutsion sotsializm (kommunizm) o'rtasidagi kurash bilan bog'liq bo'ldi.
3. SSSRning parchalanib ketishi mafkuraning, mafkuraviy kurashning susayishiga emas, geosiyosiy maqsad va yo'nalishlarning o'zgarishiga olib keldi. Aksincha, mafkuraviy kurash yanada noziklashdi va keskinlashdi. Ushbu kurashning asosiy qiyinchiligi endigina mustaqil bo'lgan davlatlar eimmasiga tushdi.

II. BOB MARKAZIY OSIYOda XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH IMKONIYATLARI

¹ Milliy istiklol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.— Toshkent, 2001, 69-bet.

² Milliy istiklol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.— Toshkent, 2000, 24-bet.

2.1. Mustaqillikka erishgan davlatlarga mafkuraviy tazyiqlar.

To'qsoninchi yillarning boshi sarosima, ishonchsizlik va ijtimoiy frustratsiya yillari bo'ldi. Eski xudolar taxtdan tushirildi, turli g'oyaviy-siyosiy konstruksiyalar el ishonchini yo'qotdi va o'tmishning ko'plab diniy ta'limotlari kabi o'tmishga yo'l oldi. U yoki bu tarzda "jon saqlab qolgan" g'oyalar esa endi xalqlarni o'z ortidan ergashtira olmay qoldi. Radikal sotsialistik va kommunistik utopiyalar barxam topishi bilan birga uning o'rnini bosadigan xamda turli xalqlarning orzu-umidlarini ifodalaydigan g'oyalar ishlab chiqilmadi.

Eng e'tiborli jiyi shundaki, kishilar biror bir g'oyaga – na reformatorlarga, na revolyutsionerlarga – ishonmay qo'ydilar. Ulug' dasturlar, ulug' ta'qiqar, ulug' shiorlar endilikda ularni junbushga keltirmayotir, xayratga solmayotir. To'qsoninchi yillar boshida eng mantiqli g'oyalar xam kishilarning befarqligi tufayli qudratli kuchga aylana olmadi.

O'ta mafkuralashtirilgan Sovet davlatining barxam topishi bilan kommunistik utopiya xam inqirozga yuz tutdi yoki, aksincha, kommunistik utopiya inqirozga yuz tutishi bilan Sovet davlati xam barxam topdi. Marksizm-leninizm inqirozi XX asrning muxim voqealaridan biri bo'ldi. Ushbu inqiroz sotsialistik taraqqiyot yo'lini tanlagan ko'plab mamlakatlarni arosatda qoldirdi. So'llik va so'l g'oyaviy-siyosiy oqimlar o'z xalqchilligini yo'qotdi. Endi kommunistlar ikki yo'ldan birini tanlashga majbur bo'lib qoldilar: birinchisi, o'z an'anaviy g'oyalari va pozitsiyalariga sodiq qolib, yanada kuchliroq mafkuraviy kurash olib borish; ikkinchisi, umume'tirof etilgan qoidalarini qabul qilib, o'zga mafkuralarning ijobiy tajribalarini o'zlashtirish. Birinchi yo'l mantiqiy ravishda kommunizm g'ayalarining ijtimoiy-siyosiy xayotdan surib chiqarilishiga olib keladi. Chunki shundoq xam xalqchilligini yo'qotgan g'oyalarni o'jarlik bilan takrorlayverish o'zga intixoga qadam qo'ymasligi aniq. Ikkinchi yo'l esa kommunizm g'oyalarining o'zga mafkuralar bag'rida singib, yo'qolib ketishiga olib keladi. Chunki o'zga mafkuralarga eshiklarini ochib bergan xar qanday utopiya o'zini o'limga xukm qilgan bo'ladi. Xullas, qaysi tomondan yondashmang, kommunizm g'oyalari o'z an'anaviy shaklida so'nggi yillarini yashayotganiga amin bo'lamiz.

Sotsialistik tenglik xaqidagi afsonalarning o'z kuchini yo'qotishi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning g'arbcha yo'li to'g'ri ekanligidan dalolat bermaydi. Birgina faktni tilga olaylik: dunyo bozor munosabatlari printsiplarini qabul qilayotgan bir paytda G'arbning o'zida bozor iqtisodiyoti, shakllangan siyosiy demokratiya qoidalarini tanqid qilish kuchayib bormoqda. Boz ustiga, aynan G'arb ikki bora jaxon urushini boshlab berganini, totalitarizm va avtoritarizmning turli shakllarini "kashf etganini" xam unutmasligimiz lozim.

Bunday ikki taraflama inqiroz, biz avvalgi paragrafda ta'kidlab o'tganimizdek, mafkuraning o'zi o'tmishga yuz tutganidan dalolat berayotgandek go'yo. Mafkura olamida "qora dog'" – bo'shliq vujudga keldi. Bunga asoslangan ayrim psevdomafkurashunoslar (afsuski, ular orasida o'zbek olimlari xam talaygina) mafkuradan voz kechish davri keldi, deb xulosa chiqardilar. Go'yo pragmatik liberalizm davri yuzaga kelayotgandek tuyuldi ularga. Biroq xaqiqat shuki, mafkura xech qachon tarix mulkiga aylanmaydi. Xar qanday jamiyat ma'naviy soxasining nazariy darajasi, ijtimoiy ongning sistemalashtirilgan qatlami (nazariy ong) mavjud bo'lar ekan, mafkura yashayveradi. U barcha zamonlar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot xarakteri va yo'nalishiga ta'sir ko'rsatuvchi qudrat bo'lib qolaveradi. Xo'sh, shunday ekan, bugungi kundagi mafkuraviy beqarorlikni, kishilardagi mafkuraviy befarqlikni qanday baxolamoq kerak?

Avvalo shuni ta'kidlab o'tish zarurki, mafkuraviy beqarorlik degani aslo mafkuraviy bo'shliqni (ya'ni kishilik jamiyatida mafkuraning butunlay yo'qligini), mafkuraviy befarqlik esa aslo mafkuradan xolilikni anglatmaydi. Chunki kishilik jamiyatining biror bir ko'rinishi (nemis jamiyati, o'zbek jamiyati, yapon jamiyati) ma'lum muddat mafkuraviy bo'shliqni boshidan kechirishi mumkin, biroq kishilik jamiyatining o'zi (yaxlit xolda) mafkurasiz bo'lishi mumkin emas. Xuddi shu kabi, kishilar yolg'ondakam, xaqiqatdan yiroq mafkurani to'liq anglamasdan qabul qilishlari mumkin, biroq xar qanday mafkuraviy ta'sirdan tashqarida bo'la olmaydilar.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, birinchidan, bugungi kunda mavjud bo'lgan ko'pgina mafkuralar yaxlitlik va izchillikdan nixoyatda yiroq. Ularda jamiyat xayotining ma'lum jabxalari qamrab olinadi, xolos. Darvoqe, ushbu xolat jaxon tarixiy taraqqiyotiga xam katta ta'sir ko'rsatmoqda. Chunonchi, xalqaro munosabatlar xilma-xil mafkuralarga buysunganlari bois bir-biriga zid bo'lgan, yaxlitlikdan yiroq iqtisodiy, ijtimoiy- siyosiy va ma'naviy omillar yuzaga kelmoqdaki, ular jaxon taraqqiyotini tendentsiyaviylik xususiyatidan maxrum etib, tasodifiy tus bermoqda. Vaxolanki, ikki qutbli dunyo sharoitida jaxonda yuz bergan voqeaning moxiyatini (kapitalistik yoki sotsialistik xarakterini) mafkura nuqtai nazaridan ilg'ab olish xamirdan qil sug'urgandek oson edi. Xozirgi sharoitda esa xalqaro voqealarning asl maqsadi va moxiyatini aniqlash nixoyatda mushkul. Ayniqsa mafkuraviy xarakterga ega bo'lgan xalqaro voqealarning maqsadi va yo'nalishini aniqlash amri maxol. Shuning uchun xam O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov mafkura poligonlarini yadro poligonlariga nisbatan ko'proq kuchga egaligini ta'kidlar ekan, "agar xarbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiq, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab olish nixoyatda qiyin", - deydi.¹

Ikkinchidan, postindustrial inqilob, urbanizatsiya, informatizatsiya, globalizatsiya jarayonlari foyda ketidan quvadigan, asosan moddiy manfaat va extiyojlarini qondirishga intiladigan

¹ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasini xalkni – xalk, millatni – millat kilishga xizmat etsin. Adolatli jamiyat sari. – Toshkent, 19998, 6-bet.

lyumpenlarni² vujudga keltirdiki, bunday kishilar o'z maqsadlari yo'lida xar qanday afsonayu g'oyani xam qo'llab-quvvatlashga qodirlar. Bunday xolat mamlakat xavfsizligiga beqiyos taxdid solishi tabiiy.

Kishilik jamiyatida butun-butun xalqlarni yagona bayroq ostida birlashtirishga qodir bo'lgan qudratli mafkuralarning yo'qligi, kishilarning esa o'z onglari va faoliyatlarini qamrab olayotgan mafkuralarga befarqliklari qator g'ayriinsoniy, vayronkor g'oyalarning rivoj topishiga imkon yaratmoqda. Turli jamiyatlar an'anaviy diniy va mafkuraviy qadriyatlar, normalar va mo'ljallardan voz kechar ekanlar, osoyishta xayot va'da qiluvchi yangi g'oya va afsonalarning ildiz otishi uchun shart-sharoit yaratib bermoqdalar. Bunday vaziyatda diniy ekstremizm, millatchilik, neototalitarizm, neoavtoritarizm, shovinizm kabi ko'plab g'oya xamda ideallar shakllanib va tarqalib bormoqdaki, ularning ayrimlarini tilga olib o'tsak.

Xozirgi zamonning mafkuraviy manzarasida sezilarli axamiyat kasb etayotgan vayronkor g'oyalarni ikki guruxga bo'lish mumkin. Zotan, o'zbek jamiyatining taraqqiyotiga xavf solayotgan g'oyalarni (shovinizm, neototalitarizm, rasizm, sotsial-darvinizm, antiutopiya va shu kabilar) mamlakatimiz fuqarolariga bevosita singdirishga urinilayotgan g'oyalardan (millatchilik, diniy ekstremizm, milliy maxdudlik va shu kabilar) ajrata bilish lozim.

O'zbek jamiyatiga katta xavf solayotgan g'oyalardan biri shovinizmdir. Uni Prezident I.Karimov «muayyan kuchlar va davlatlar tomonidan bo'ladigan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy xukmronlik deb yoki millatlararo va davlatlararo, mintaqaviy munosabatlarda unga intilish deb ta'riflash mumkin».¹ SHovinizm tarafdorlari o'z millatlarining manfaatlari va extiyojlarini xaddan ziyod ulug'laydilar, ularni boshqa millat va elatlar xisobiga bo'lsa xam qondirishni targ'ib etadilar. «Iqtisodiy imkoniyatlari zaiflashgan, ijtimoiy totuvlikka zil ketgan, ichki ziddiyatlar kuchaygan, Vatan, millat taqdiridan o'zining tor manfaatlarini ustun qo'yadigan, o'zaro kelisha olmayotgan, xokimiyatga da'vogar siyosiy guruxlarning mavjud muammolarni tashqi kuchlar yordamida xal qilishga urinishi va ma'naviy-ruxiy parokandalik, ertangi kunga ishonchsizlik tuyg'ulari xukmron bo'lgan mamlakatlar buyuk davlatchilik shovinizmi nishoniga aylanishini zamonaviy tarix xam ko'rsatib turibdi».¹

Millat va elatlarning yagona totalitaristik tizim sharoitidagina farovon xayot kechira olishini targ'ib etuvchi neototalitarizm g'oyalari xam jamiyatimiz taraqqiyoti uchun katta xavf tug'dirmoqda. CHunki ushbu g'oya tarafdorlari millatlarni yana imperiya sharoitiga qaytarishni, yana mustaqillik qadriyatlariga panja ortidan qarashni taklif etadilar. Asrlar davomida orzu qilib

² Lyumpen – nemischa "uvada", "juldur" suzlaridan olingan bulib, milliy va sinfiy kiyofasini yukotgan axoli tabakalarini anglatadi.

¹ Karimov I.O'zbekiston XX1 asr busag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- Toshkent, 1997, 52-bet.

¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.- Toshkent,2001,59-bet.

kelingan mustaqillik millatimiz uchun qimmatga tushdi. Biz imperiyabozlik va totalitarizm kulfatlarini bisyor tatib ko'rdik. SHu bois o'zbek xalqi endi biror bir yangi totalitaristik tizimlarda xayot kechirishni istamaydi.

Yuqoridagi g'oyalar bilan birga qator vayronkor g'oyalar xam mavjudki, jaxondagi turli siyosiy kuchlar ularni o'zbek xalqining ongiga singdirishga intilmoqdalar. Ibtidoga qaytish g'oyalarini targ'ib etuvchi diniy ekstremizm ana shunday g'oyalar turkumiga kiradi. U XX asrning 90-yillariga kelib, ayniqsa keskin tus oldi. Ushbu g'oyaning eng daxshatli tomoni shundaki, u bugungi kunda integratsiyaga intilayotgan insoniyatni "biznikilar" va "begonalarga" bo'lmoqda. Aytish joizki, diniy ekstremizm nafaqat islom, balki xristian dini g'oyalariga xam asoslanishi mumkin. Biroq islom diniy ekstremizmi o'zining murosasizligi bilan tanilgan. «U o'zining ikki xususiyati bilan ajralib turadi:

- ularning aqidalariga ko'ra, go'yo barcha xozirgi zamon musulmon jamoalari islomiy tuslarini yo'qotganlar va joxiliya (islomdan avvalgi) asri jamiyatlariga aylanganlar. Bunday yondashuv xukumat va uning olib borayotgan siyosatini tanqid qilishga asos bo'lib xizmat qiladi;

- ular go'yo faqat xaqiqiy musulmonlar, ya'ni ularning o'zlari xokimiyatga kelgach, barpo bo'lajak islomiy tartibni o'rnatish uchun keskin va agressiv xarakat qilish zarur deb xisoblaydilar».¹

Islom diniy ekstremizmining eng yorqin ifodasi vaxxobiylilik bo'lib qolmoqda. Sunniylarning 1,5 foizini tashkil etuvchi va xanbaliylarga mansub bo'lgan, o'z maqsadini islom dinini asl xolatiga qaytarishdan iborat deb bilgan vaxxobiylilik aslida xokimiyat uchun kurashish yo'lida vujudga kelgan siyosiy xarakatdir. Muxammad ibn Abd al-Vaxxob g'oyaviy qarashlariga tayangan vaxxobiylar SHarq xalqlari o'rtasida nifoq solishda, ularni mustamlaka qilishda o'z "xissalarini" qo'shdilar. Musulmonchilikdan yiroq bo'lgan bu oqim tarafdorlari 1802-1803 yillarda Rasuli akram saxobalaridan birining Jubaylidagi qabrini, Muxammad payg'ambarning nabiralari imom Xasan va imom Xusanning qabrlarini, keyinroq borib Makka va Madinadagi qabr toshlarini, xatto Rasuli akramning umr yo'ldoshi Xazrati Bibi Oysha, qizi Bibi Fotimaning qabrlarini buzib tashladilar. 1810 yilda esa Rasuli akramning masjidini vayron qilib, talab olingan bezaklarni sotib yubordilar.¹ 2001 yilda vaxxobiylarning qo'li bilan Afg'onistonda ikki ming yildan buyon saqlanib kelgan o'nlab tarixiy yodgorliklar Yer yuzidan yo'q qilib tashlandi.

Bugungi kunda jaxondagi ayrim siyosiy kuchlar o'zbek jamiyati a'zolariga millatchilik g'oyalarini singdirishga xam intilmoqdalar. Globalizatsiya jarayoni umuminsoniy qadriyatlar miqdorini oshirish bilan birga milliy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlariga taxdid solayotgani rost.

¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -Toshkent.2001,75-bet.

¹ Yusupov E.Islomiy qadriyatlar va diniy ekstremizm.- Ijtimoiy fikr. Inson xuquqlari, 1998,N 3, 46-47-betlar.

Jaxon siyosiy olamidagi ayrim kuchlar ushbu faktdan xam o'z g'arazli yo'llarida foydalanmoqdalar. Xokimiyat uchun kurash, siyosiy "obro'" orttirish maqsadida bu kuchlar millatchilik g'oyalarini o'zlariga qalqon qilmoqdalar.

Diniy ekstremizm, millatchilik va ularga o'xshagan ko'plab g'oyalarning asosiy ta'sir ob'ekti endigina mustaqilligini qo'lga kiritgan mamlakatlar bo'lib qolayotganini ko'rsatib o'tdik. Chunki geosiyosatning asosiy maqsadi o'z mavqeini o'zga mintaqalarda mustaxkamlashdan va shu mintaqalarni o'z ta'siri ostiga olishdan iborat bo'lgan bir davrda jaxondagi turli siyosiy kuchlar yosh suveren davlatlarni o'z manfaatlarini doirasiga kiritmoqdalar, ularning mustaqilligini zaiflashtirish maqsadida biz tilga olgan g'oyalarni targ'ib etmoqdalar. "Mintaqada shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy aloqalarni izdan chiqarish, do'st va birodar davlatlar, xalqlar va millatlar o'rtasiga nizo solish, keskinlik o'choqlarini keltirib chiqarish uchun turli g'oyaviy, diniy va mafkuraviy vositalar ishga solinmoqda".¹ Ushbu vositalarni shartli ravishda uch yo'nalishga taalluqli topish mumkin.

1. Informatsion urush. Mustaqil mamlakatlar xududida ma'lum turmush tarzini, qadriyatlar tizimini ulug'lovchi risolalar, varaqalar, san'at asarlari, kinofilmlar, axborotlar va xokazolar tarqatilmoqda. Informatsiya uzatish imkoniyatlari kengayib ketgan bir sharoitda informatsion urushning xavfli oqibatlarini til bilan bayon etish mushkul bo'lsa kerak. Chunonchi, 1665 yilda 10 ta, 1800 yilda 100 ta, 1850 yilda 1000 ta, 1900yilda 10 mingta, 1960 yilda 100 mingta jurnal nashr qilindi.² XX asr nixoyasiga kelib, ularning soni 1 millionga yetdi. Gazetalar miqdorining rivoji xam xuddi shu tarzda davom etdi. To'qsoninchi yillar arafasida faqatgina AQSHda 1850 davriy nashr mafkuraviy maqsadlarga qo'llanildi.³ Bizning davrga kelib, sputnik antennalarining maishiy turmushga kirib kelishi, "Internet" tizimining rivojlanishi informatsiya uzatish imkoniyatlarini bir necha o'n barobarga mukammallashtirdi va tezlashtirdi. Ushbu xolning informatsion urushga ta'siri beqiyosligini ko'rish qiyin bo'lmasa kerak.

2. Psixologik urush. Mustaqil davlatlarning axolilariga tanlangan yo'llarining noto'g'ri ekanligini singdirishga, ularni oxir-oqibatda ijtimoiy larzalar kutayotganini asoslashga intilinmoqda. Masalan, faqatgina 1999 yilning sentyabr oyidan 2000 yilning mart oyiga qadar «Nezavisimaya gazeta»ning "Internet" dagi saytlarida O'zbekistonda ijtimoiy xayot keskinlashish arafasida turgani to'g'risida ayyuxannos soluvchi 20 ga yaqin material e'lon qilindi. Bularning barchasi millat ruxini tushirish, uni tanlagan yo'lidan qaytarish va xomiy axtarishga majbur etish maqsadida amalga oshirilayotir.

¹ Milliy istiklol goyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar. – Toshkent, 2000, 26-bet.

² Price D.Science Since Babilon. – New-Haven, 1961, p.95.

³ Problemo' ideologicheskoy bor'bo' na mirovoy arene. – Moskva, 1988, s.82.

3. Texnologik urush. Mustaqil davlatlarning e'tiborini jalb etish maqsadida o'z iqtisodiy, ijtimoiy, informatsion texnologiyalarini targ'ib etishga urinilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad shuki, ushbu texnologiyalarni joriy etish bozori vujudga keltirilsa, yangi texnologiyalar bilan birga o'z taraqqiyot modelini xam singdirish, eksport qilish imkoni yaratiladi.

Ushbu muloxazarimizdan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. XX asrning to'qsoninchi yillariga qadar xukm surgan sotsial-reformistik g'oyalar va kommunistik utopiya o'zini oqlamagani bois XXI asr arafasida jaxonda, bir tomondan, mafkuraviy beqarorlikni, ikkinchi tomonda esa, mafkuraviy befarqlikni vujudga keltirdi. Xususan, mafkuraviy beqarorlik jaxonda butun-butun xalqlarni jipslashtirish imkoniga ega g'oyalarning yo'qligida namoyon bo'layotgan bo'lsa, mafkuraviy befarqlik kishilarning o'z ongi va faoliyatlarini egallayotgan g'oyaga e'tiborsizliklarida o'z ifodasini topmoqda.

2. Bunday sharoitda diniy ekstremizm, millatchilik, neototalitarizm, neoavtoritarizm kabi g'ayriinsoniy g'oyalar rivojlanishi va tarqalishi uchun shart-sharoitlar xosil bo'lmoqdaki, undan eng avvalo endigina mustaqilligini qo'lga kiritgan mamlakatlar ayniqsa katta zarar ko'rmoqdalar. Ushbu g'oyalar turli siyosiy kuchlarning geopolitik maqsadlarini ro'yobga chiqarish maqsadida tarqatilmoqda va targ'ib etilmoqda.

3. Mustaqil davlatlarga qilinayotgan mafkuraviy tazyiq informatsion urush, texnologik urush sifatida olib borilmoqdaki, ularning asl maqsadi millatga begona turmush tarzi va qadriyatlar sistemasini singdirish, tanlagan yo'lidan ozdirish, o'z texnologiyasini joriy etish, oxir-oqibatda esa uni o'z ta'siri ostiga olishdan iborat.

2.2. Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda O'zbekistonning o'rni.

Jahon hamjamiyati o'z taraqqiyotining o'ta murakkab va ma'suliyatli davrini boshdan kechirmoqda. Global sharoitida aqidaparastlik muammolari hamda milliy, mintaqaviy va dunyoviy xavfsizlikka tahdid solayotgan vaziyatga duch kelayotgan insoniyat sifat jihatidan yangi tartiblarni qaror toptirishga harakat qilmoqda.

Xavfsizlik va barqarorlik muammosi yangi asrda ham jahon hamjamiyati oldida turgan eng asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Xavfsizlikni makon nuqtai nazardan milliy, mintaqaviy, xalqaro xavfsizlikka bo'lish mumkin. Bizning mavzumizga tegishli bo'lgan mintaqaviy xavfsizlik muammosi haqida to'xtaladigan bo'lsak, mintaqaviy xavfsizlik bu mintaqaning mavjud yaxlitligini ta'minlash, uning iqtisodiy munosabatlarda, tabiatni muhofaza qilishda jahon hamjamiyati bilan shu mintaqaga uchun qulay sharoit yaratish va chegaralar daxlsizligini ta'minlash kabi masalalarni qamrab oladi. Mintaqaviy xavfsizlikni makon nuqtai nazaridan ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Tashqi mintaqaviy xavfsizlik.

2. Ichki mintaqaviy xavfsizlik.

Markaziy Osiyodagi tashqi mintaqaviy xavfsizlikka tahdid soladigan omillarga: Afg'onistondagi notinch vaziyat, terrorizm, mintqa atrofidagi davlatlarda qurollanish poygasining kuchayayotganligi, Pokiston va Hindistonda yadro sinovlari o'tkazilishi, Markaziy Osiyoning geopolitik markazlardan biri hisoblanishi, dunyoda energiyaga bo'lgan talabning oshib borayotganligi, axborot xavfsizligi muammosi va boshqalarni kiritish mumkin.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikka tahdid soluvchi xavf-xatarlarning manbai xaqida so'z borar ekan, avvalo asosiy e'tiborni Afg'oniston va Tojikistondagi vaziyatga, terroristik xatti – harakatlar va shuningdek geosiyosiy kayfiyatdagi kuchlarga qaratish lozim. SSSR parchalanib ketganidan keyin O'zbekiston amalda front yaqinidagi davlatga aylanib qoldi. Yon chegaralarimizda Afg'oniston va Tojikistonda so'nggi yillarda yuz minglab insonlar hayotiga zomin bo'lgan ikkita notinchlik o'chog'i vujudga keldi. Salkam 25 yildan ortiq Afg'onistonda, 6 yildan ortiq Tojikistonda tanglikning chuqurligi va keskinligi saqlanib turdi. Birodarkushlik urushi butun mamlakatga yoyilib, begunoh kishilarning qoni to'kildi. O'zbekiston mintqa aholisining qariyb yarmi istiqomat qilayotgan, Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatlar va notinchlik hukm surayotgan Afg'oniston bilan bevosita chegaradosh bo'lgan yagona davlat sifatida tahdid va xavf-xatarining umumiyiligini, Markaziy Osiyo mintaqasi va u yerda yashayotgan xalqlar taqdiri uchun ma'suliyatni yaxshi anglaydi. Afg'onistonda tinchlik o'rnatmay turib, bu katta mintaqada xavfsizlikni ta'minlab va uzoq muddatli barqarorlik o'rnatib bo'lmasligini isbotlashga hojat yo'q. Bundan tashqari Afg'onistonda 6 mlnga yaqin tojiklar, 1 mlnga yaqin turkmanlar, 1,5 mlndan ortiq o'zbeklar yashaydi.¹ Yoki o'zbeklar Afg'oniston aholisini 6%ini tashkil qiladi.²

Afg'oniston, majozan aytganda, nafaqat mintaqaviy, balki dunyoviy xavfsizlik tizimiga ulangan . Bu mamlakat hududi xalqaro terrorning tayanch markazi, o'ta jangari va buzg'unchi kuchlarning mashq maydoni, jahon bozoriga narkotik yetkazib beradigan asosiy manba bo'lib qoldi. Ma'lumotlarga qaraganda 2000 yilda jahon qora bozoridagi narkotik moddalarining 75%ni Afg'onistonda yetishtirilgan narkotik moddalar tashkil qiladi.³ Afg'onistonda 10 ta diversion markazlar bo'lib, yiliga 10000 kishi tayyorgarlikdan o'tgan.⁴ Bu mintaqaviy beqarorlik bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Afg'oniston va Tojikistondagi o'zaro urushlar shundoq ham yaxshi rivojlanmagan mamlakat iqtisodiyotini butunlay izdan chiqardi. Bu qirg'in barot urushlar Markaziy Osiyoda

¹ Yu.Morozov. Perekroyka politicheskoy kartu. Aziya i Afrika segodnya, 2002, №7, str. 9-14

² Dunaev V. Afganistan «xudoy mir» pered novoy s soroy, Rossiya i musul'manskiy mir-1999 №5(83), str. 95.

³ I.Jmuyda. «Zolotoy polumesyats» i TSentral'naya Aziya: osnovnye potoki geroinovoy ekspansii. TSentral'naya Aziya i Kavkaz. 2002 №4(22) str.61.

⁴ TSentral'naya Aziya i Kavkaz. 2001 №1(13) str.17.

joylashgan davlatlarni “iliq dengizlar”dagi portlarga chiqish va shu yo’l bilan jahon xo’jaligi aloqalariga faolroq tortilishiga to’siq bo’lmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari esa Qora dengiz va Boltiq dengizi bo’ylaridagi portlardan foydalanishga majbur bo’lishmoqda. Vaziyatning rivojlanishi natijasida qurolli yoki boshqacha tarzda qo’poruvchilik faoliyati qo’shni davlatlar hududiga o’tishi ehtimoli kuchaymoqda. Chunki afg’on va tojik yeridagi mojarolar amalda nazorat qilib bo’lmaydigan holatga kelib qolgan edi. Oqibatda bir guruh qo’poruvchilar Tojikiston hududidan Qirg’izistonning Botken tumaniga bostirib kirishdi. Oradan bir yil o’tgach bu voqealar yana takrorlandi. Qobul, Qandahor, Tavildara va Garm atrofidagi qishloqlarda tayyorgarlikdan o’tgan bir guruh bosqinchilar O’zbekiston hududidagi Sariosiyo va Uzun, Qirg’izistonning Laylak tumanidagi o’tib bo’lmas tog’li joylarga bostirib kirishdi. Bu qurolli to’dalar ma’lum bir joydan boshqarilayotganini, bu harakatlar yahlit strategiyaning bir qismi ekanligi o’ta xatarli hisoblanadi. Chunki bu harakatlarga jahonning ko’pgina xalqlari boshiga kulfatlar keltirayotgan, yovuz kuch bo’lgan «Al-Qoida» tashkiloti rahbarlik qilmoqda.

O’zbekiston rahbariyati Afg’oniston va Tojikistondagi mojarolarni hal qilish borasida amaliy takliflar bilan chiqdi va shunga hamohang harakat qildi. Bu mintaqadagi mojaroni bartaraf etish yo’llarini izlab topishda BMT tomonidan ishlab chiqilgan qarorlarga muvofiq harakat qilindi. “Barchamizga ayon bo’lishi kerakki, bugun Afg’oniston maydonida bir-biriga qarshi turgan kuchlar, ular hududiy, etnik va diniy guruh yoki qatlamlar bo’ladimi bir-biridan o’ch olishga, har xil shartlar yoki o’zini ustun qo’yish yo’li bilan emas, aksincha, bir-birining o’zaro tushunib hamda manfaatlarini tan olib, til topishiga intilishi va avvalo, Birlashgan Millatlar Tashkiloti kelishuvga erishish yo’li bilan bu zaminda tinchlik o’rnatish mumkin”².

Hozirgi vaqtda Afg’oniston mojarosining ko’pgina ishtirokchilari, shuningdek, ularning orqasida turgan kuchlar Afg’oniston mojarosini harbiy yo’l bilan hal qilib bo’lmashligini tushunib yetdi. Afg’oniston mojarosi boshlangandan to bugungi kungacha bo’lgan davrdagi misli ko’rilmagan bu vaziyatni to’g’ri baholamaslik mumkin emas. Afg’onistonda tinchlik va barqarorlikni o’rnatish borasida O’zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan amaliy takliflar quyidagilardan iborat bo’ldi:

– Nizolarni hal qilishning bosqichma-bosqichligi, BMT Bosh kotibining mahsus vakili vositaligida bugun Afg’onistonda bir-biriga qarshi kurashayotgan ikki asosiy kuch o’rtasida o’t ochishni to’xtatish, harbiy asirlarni ayriboshlash, Afg’onistonga insonparvarlik yordamini yetkazib berish uchun yo’llarni ochish va ichki to’siqlarni olib tashlash to’g’risida bitimlar tuzish, dastlabki zaruriy bosqich bo’ldi.

² Karimov I.A. Biz uchun xalqimiz, Vatanimiz manfaatidan uluf ma’lad u’uf-“ISHONCH”, 2001 yil 7 dekabr.

– Barcha manfaatdor tomonlarning muzokara jarayonida ishtirok etishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Bu jarayonda BMT, YeXHT, IKT va boshqa xalqaro tashkilotlarning faol ishtirok etishi va homiylik qilishni ta'minlash, ular ishtirokida Afg'onistondagi mojaroni bartaraf etish, qochoqlarni qaytarish, hududni minalardan tozalash, qurolsizlanish va shu kabi boshqa masalalar to'g'risida qarama-qarshi tomonlar o'rtasida umumiy bitim qabul qilishga erishish darkor.

Afg'onistondagi keskinlikni hal qilish kaliti, eng avvalo, tashqi kuchlarning aralashuvini bartaraf etishdadir. Oxirgi o'n yilliklarda shunday vaziyat vujudga keldiki, ayrim sabablar natijasida Afg'on tuprog'i ko'plab tashqi kuchlarning bir-biriga zid manfaatlari to'qnashgan mamlakatga aylanib qoldi.

Mahalliy mojarolar zonalariga qurol yetkazib berishni qat'iy taqiqlab qo'yish, o'zaro kurashayotgan guruhlarini tashqaridan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga chek qo'yilmasdan, bu o'lkada tinchlik o'rnatib bo'lmaydi.

Afg'on muammosini hal etish borasidagi O'zbekistonning qat'iy pozitsiyasi jahon hamjamiyati tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda.

Keyingi yillarda jahonning turli hududlarida ro'y berayotgan terrorchilikning yovuz ko'rinishlari tobora kuchayib bormoqda. Begunoh odamlarni o'ldirish, garovga olish, binolar va turar joylarni portlatish, bosqinchilik, qo'poruvchilik kabi misli ko'rilmagan jinoyatlar orqali millionlab insonlarning tinch hayotini izdan chiqarish, qo'rqitish va zo'rovonlik bilan o'z niyatiga erishishga qaratilgan tajavuzkor harakatlar avjiga chiqmoqda. 2001 yil 11 sentyabrda AQSHning Nyu-York va Vashington shaharlarida sodir etilgan, bir necha daqiqada minglab odamlarning hayotiga zomin bo'lgan vahshiylik, yer yuzidagi barcha xalqlarning ko'zini bu achchiq xaqiqatga ochib berdi. "Xalqaro terrorizmning ana shunday o'ta ketgan yovuz kirdikorlari dunyodagi barcha sog'lom fikrli kishilarning qahru g'azabini uyg'otdi, unga nisbatan befarq bo'lish mumkin emasligini ko'rsatdi".¹

Terrorizm o'ta salbiy ijtimoiy hodisa sifatida u yoki bu ko'rinishda qadim-qadimdan ma'lum. Bunday xatti-harakat insoniyat tarixida yangilik emas. Qo'poruvchilik hollari turli davrlarda, turli mintaqalarda xilma-xil shaklda sodir bo'lib kelgan. U hamisha insoniyat hayotiga tahlika va tahdid solib turli g'arazli maqsadlarning g'oyalari va xohish-irodalarining timsoli sifatida yashaydi.

Ilgari bunday harakatlar turli mintaqalarda amalga oshirib kelingan bo'lsada, keyingi paytda bunday harakatlarning bir-biri bilan tobora chambarchas bog'lanib ketayotganini, ularni bitta markazdan amalga oshirilayotganini va mablag' bilan ta'minlanayotganini anglash qiyin

¹ Karimov I.A. Biz uchun xalqimiz, Vatanimiz manfaatidan ulug' maqsad yo'q-"ISHONCH", 2001 yil 7 dekabr.

emas. Ko'pgina davlat rahbarlari bunday xatti-harakatlarga nisbatan oxirgi paytgacha qat'iyat bilan kurash olib borishgani yo'q. Hattoki bunday voqealar yon qo'shnimiz Qirg'izistondagi Botken fojiasida ham ko'zga tashlandi.

XXI asr vabosi bo'lmish terrorizm ofatining har qanday davlatga tahdid solish mumkinligi, eng kuchli, eng rivojlangan davlatlar ham uning zarbasidan chetda qololmasligi xalqaro jamoatchilikka ayon bo'lmoqda.

Terrorizm tabiatdagi tumandek hodisa sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Birpasda o'z qiyofasini ko'rsatadi va tezda g'oyib bo'ladi. Bu esa unga nisbatan olib boriladigan xatti-harakatlarda nihoyatda extiyotkorlikni talab qiladi. Ya'ni bunday xatti-harakatlar davomida aybsiz oddiy xalq zahmat chekmasligi lozim. Bu dahshatga qarshi kurashda xalqaro hamjamiyat birinchi galda qudratli ma'rifiy davlatlar kuchlarini birlashtirish, bir yoqadan bosh chiqarib kurashish, bu hodisaning nafaqat ko'rinishlarini, balki uning orqasida turgan markazlarni ham tag-tomiri bilan yo'q qilib tashlash bilangina qutulish mumkinligiga iqror bo'lmoqda.

XX asrning so'ngida, jahon siyosiy xaritasida yuz bergan o'zgarishlar jarayoni Markaziy Osiyoda ham keskin o'zgarishlarga olib keldi. Mintaqada ro'y berayotgan g'oyaviy jarayonlar mafkuraviy tahdidlar, siyosiy kurashlar zamini sharoitida amalga oshmoqda. Bugungi kunda geosiyosat dunyoni o'zgartiruvchi real omil bo'lishi bilan birga, tobora yetakchi davlatlarning va mintaqalarning siyosatini tahlil qilishning asosiy vositalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu paragraf bo'yicha xulosalarimiz quyidagilar: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovni asarlari va nutqlaridagi g'oyalardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining bayonotida ilgari surilgan qoidalardan, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillaridan kelib chiqqan holda mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda quyidagi vazifalarga asosiy e'tiborni kuchaytirish zarur:

- mintaqada haligacha mintaqaviy xavfsizlik tizimi yo'lga qo'yilmagan. Afg'onistondagi voqealar, Pokistondagi rejim, Eronni turli xil siyosiy qarashlari Markaziy Osiyoni asosan o'zaro hamkorlikdagi harakati harbiy xavfsizlikni va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi mumkin.

- Markaziy Osiyodagi davlatlarning Afg'oniston, Pokiston, Eron bilan o'zaro manfaatli, hurmat va to'g'ri munosabatlarining yo'lga qo'yish kerakki bu davlatlararo va xalqlararo mojarolari kelib chiqishining oldini oladi.

- Juda ko'p hukumatlarda harbiy sohada qudratli bo'lishga tashnalik bor yoki atom quroliga ega bo'lish va shu orqali atrof dunyoni qo'rqitish g'oyalari mavjud. Biz mintaqada atrofida «agar seni sevishmasa, unda sendan qo'rqishlari kerak», degan aqidadan voz kechishimiz kerak.

- Markaziy Osiyo xalqlari mintaqada geosiyosiy, geomadaniy, geoiqtisodiy yaxlitlikni vujudga keltirishlari zarur. Fikrimizcha, Markaziy Osiyoda geosiyosiy yaxlitlikni vujudga keltirish mintaqadagi ko'plab xavf va tahdidlarni bartaraf etadi.

III. BOB HOZIRGI DAVR GEOSIYOSATI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARINI TUSHUNTIRISHNING INTERFAOL OMILLARI.

3.1. Geosiyosiy jarayonlarning globallasuvi sharoitida ta'lim tizimi oldidagi vazifalar.

Mintaqa mamlakatlarining tarixiy-etnik jihatdan yaqinligi, ularni bir-birlari bilan munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga undovchi omillardan biri hisoblanadi. Shu sababdan ham bo'lsa kerakki, Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikning dastlabki yillaridanoq o'zaro yaqinlashishga intilib kelishmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek «bu mintaqa har doim u yoki bu shaklda integratsilashgan. Markaziy Osiyo xalqlari o'z kelajaklarini birgalikda qurish zaruriyatini mustaqillikni qo'lga kiritganlaridan keyin yana bir bor his qilishdi»¹.

Markaziy Osiyo respublikalarining o'z siyosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtirish yo'lidagi dastlabki urinishlari 1991 yil dekabrda, ya'ni 8-dekabrda bo'lib o'tgan va sobiq ittifoq faoliyatiga nuqta qo'ygan Belovej Kengashidan bir hafta o'tgach yuz bergan edi. Ashxabodda bo'lib o'tgan bu uchrashuvda mintaqadagi beshta davlat rahbarlari sobiq ittifoq hududida vujudga kelgan vaziyatni muhokama qilishgan va keyingi harakatlarini muvofiqlashtirib olishgan edi. Umuman mintaqaviy yaqinlashuv ya'ni mintaqaviy integratsiya jarayonlari keyingi yillarda dunyoning turli mintaqalariga xos bo'lgan holat bo'lib qoldi. Bunga misol qilib Yevropa qit'asidagi, Shimoliy Amerika, Osiyo va Tinch okeani va boshqa mintaqalardagi integratsiya jarayonlarini keltirib o'tish o'rinlidir. Ushbu tendentsiya Markaziy Osiyo davlatlarini ham chetlab o'tmadi va bu yerdagi integratsiya jarayonlari jahon iqtisodiy va siyosiy makonida saqlanib qolishning tobora murakkablashib borayotgan shart-sharoitlariga ushbu mamlakatlarning javobini aks ettirar edi.

Qozoq siyosatshunosi U. Kasenov fikricha, mintaqa ichidagi o'zaro siyosiy integratsiya alohida davlatlar suverenitetini mustahkamlaydi. U jumladan, «Markaziy Osiyoda davlat suverenitetini mustahkamlanishi, sobiq respublikalarning milliy rivojlanishlari, ular o'rtasidagi davlatlararo hamkorlik va integratsiya bilan birgalikda olib borilsagina mumkin bo'ladi. Markaziy

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T. "O'zbekiston", 1997. 311-6

Osiyo integratsiyasi va siyosiy muvofiqlashtirish muassasalarining samarali faoliyati har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirishga imkon beradi va shu bilan bir vaqtda ular o'rtasida mavjud bo'lgan va vujudga kelishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklarni hal etishga sharoit yaratadi»¹ -degan edi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zaro yaqinlashuvi ko'plab omillarning bir-biriga ta'sirlaridan kelib chiquvchi qarama -qarshiliklar orqali ro'y bermoqda. Ushbu omillar sirasiga: iqtisodiy, tarixiy-madaniy, axborot, harbiy strategik, uzoq-yaqindagi mamlakatlarning turlicha ta'sirlarini kiritish mumkin. Mintaqa mamlakatlarining o'zaro yaqinlashuvida siyosiy hamkorlik, integratsiya jarayonlari rivojlanishining u yoki bu modelini amalda yaratuvchilari va ruyobga chiqaruvchilari hisoblanmish mamlakat rahbarlarining siyosiy irodasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib mintaqada umumiy aholisi 45 mln.ga yaqin kishini tashkil etgan, ulkan hududga va salmoqli miqdordagi resurs salohiyatiga ega bo'lgan yadro vujudga keltirildi. Bunga mintaqa davlatlaridan o'zining betaraflik mavqeida qat'iy turgan Turkmaniston va o'sha paytda fuqarolar urushi girdobida bo'lgan Tojikiston kirmadi. Keyingi yillarda ham mintaqadagi uch davlat o'rtasida o'zaro integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish borasida doimiy ish olib borildi. Buning natijasi o'laroq 1997 yil 10 yanvarida Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati a'zolari, ya'ni O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'zaro «Abadiy do'stlik to'g'risida» shartnoma imzoladilar. Markaziy Osiyodagi bu uch davlatning integratsiya borasidagi ilgari siljishlarga erishuvlari o'z navbatida mintaqadagi boshqa davlatlarni ham befarq qoldirmadi va ular ham ushbu jarayonga qo'shilish istagida ekanligini bildira boshlashdi. Bu borada ayniqsa Tojikiston faollashdi. Davlatlararo Kengashning 1997 yil 7 yanvarida Bishkekda bo'lib o'tgan majlisida Tojikiston ham ushbu tuzulmaga kuzatuvchi maqomida kirganligi tasdiqlandi². Tojikiston Prezidenti I. Rahmonovning 1998 yil 4-yanvarida O'zbekistonga qilgan safari chog'ida u Tojikistonning ham MOIHga to'la huquqli ishtirokchi sifatida kirishga qiziqayotganligini tasdiqladi³. Markaziy Osiyo mintaqasidagi beshta davlat prezidentlarining o'sha yili 5-6 yanvarda bo'lib o'tgan Ashxobod uchrashuvida esa Tojikistonning ushbu kelishuvga qo'shilishini e'lon qilindi. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat boshliqlarining 2001 yil 27-28 dekabrda Toshkentda e'lon qilingan Qo'shma bayonotida esa Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyatini Markaziy Osiyo Hamkorligi (MOH) tashkilotiga o'zgartirish to'g'risida qaror qilindi. Bundan ko'zlangan maqsad integratsiya jarayonlari qamrab oluvchi sohalarni yanada kengaytirish va ushbu jarayonlarni yanada chuqurlashtirishini ta'minlashdan iborat edi. 2002 yil 28-

¹ U.T.Kasenov, Bezopasnost Tsentralnoy Azii: natsionalnie, regionalnie i global'nyye problemi (Almati:Kaynar, 1998), str.199.

² Qarang: Reshenie glav gosudarstv Respubliki Kazaxstan, Kirgizskoy Respubliki i Respubliki Uzbekistan ot 23 avgusta 1996 // Aziya — ekonomika i jizn, sentyabr 1996, №38 (62). S. 3.

³ Qarang: Sovmestnoe Kommyunike po itogam vizita Prezidenta Respubliki Tadzhikistan E. Raxmonova v Respubliku Uzbekistan 4 yanvarya 1998 goda // Narodnoe slovo, Tashkent, 6 yanvarya 1998.

fevralda Almati shahrida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston respublikalarining prezidentlari yuqorida keltirilgan jarayonni davom ettirgan holda Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkilotini ta'sis etish to'g'risida shartnoma imzoladilar .

Shu bilan Markaziy Osiyo mintaqasidagi integratsion jarayonlarga Turkmanistondan tashqari mintaqaning barcha davlatlari jalb etildi. Turkmaniston esa mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mintaqadagi qo'shnilar bilan munosabatlarda anchagina o'zini chetga tortish siyosatini yurita boshladi. Turkmanistonning bunday siyosat yuritishiga olib kelgan bir qator omillar mavjud. Ushbu respublika sobiq ittifoqdan aholi soniga nisbatan juda katta hududni meros qilib oldi, bundan tashqari bu hudud tabiiy qazilma boyliklari bo'lgan neft va gaz bo'yicha katta zahiralarga ham ega. Shu boisdan ham mamlakat rahbariyati rivojlanishda betaraflik siyosatini qabul qilgan.

Ammo shu birga, Turkmanistonni mintaqadagi integratsiya jarayonlariga tortuvchi omillar ham mavjud bo'lib, ular sirasiga, mintaqada xalqlarning (shu jumladan, turkmanlarning ham) aralash holda yashashi, mintaqani suv bilan ta'minlovchi tizimlarning birligi, transport kommunikatsiyalarining bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga egaligi va tabiiy qazilma boyliklarni chetga chiqarish masalasida ko'p jihatdan bir-birlariga bog'liqligini kiritishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda mintaqada davlatlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarining rivojlanishiga xalaqit berayotgan ba'zi muammolar borligini ham ta'kidlab o'tish joiz.

Bu yerda yana ushbu mamlakatlarning mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki yillardagi holatiga nazar tashlashga to'g'ri keladi. Sobiq ittifoq davrida uning tarkibidagi barcha respublikalar iqtisodiy jihatdan bir-birlariga bog'lanib qolgan, ya'ni ular ma'lum bir sohalarga ixtisoslashgan bo'lib, boshqa respublikalarni ham ushbu sohalar mahsuloti bilan ta'minlab turardi, bu esa o'z-o'zidan ular orasidagi mustahkam aloqalarni talab qilardi. Ittifoq parchalangach bu aloqalarning susayishi sobiq respublikalar iqtisodiyotida sezilarli ta'sir ko'rsata boshladi.

MDH doirasidagi integratsiya o'zini oqlamadi. Chunki ba'zi davlatlar MDHni ham oldingi ittifoq boshqaruvining nomi o'zgargan shakli sifatida qabul qilib uning faoliyatida faqat nomigagina qatnashardilar. Bungi mustaqil davlatlar uchun dastlabki davrlarda o'z mustaqilliklarini mustahkamlash, jamiyatdagi tub o'zgarishlar yuz berayotgan bir paytda o'z davlat yaxlitligini saqlab qolish, jamiyat barqarorligini ta'minlash yuzasidan juda og'ir muammolarni hal qilishlariga to'g'ri keldi. Ba'zi davlatlar, masalan Tojikiston buning uddasidan chiqishga ojizlik qildi va buning oqibatida mamlakatda bir necha yillarga cho'zilgan fuqarolar urushi avj olib ketdi.

Shunday bir sharoitda yangi mustaqil davlatlar uchun nafaqat iqtisodiy, balki boshqa sohalarda ham o'zaro hamkorlik juda zarur edi¹.

Chunki mintaqaga bir tomondan turli yo'nalishdagi ekstremistik kuchlar nigohi qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan bu yerda o'z manfaatlarini ko'zlagan ba'zi chet mamlakatlar ham bu yerdagi faoliyatlarini ancha jonlantira boshlagan edi. Bundan tashqari mintaqada bir necha yillardan beri bevosita jangovor harakatlar tinmayotgan notinch Afg'oniston bilan bevosita qo'shni bo'lib, u yerdagi mojarolar agar o'z vaqtida oldi olinmasa Markaziy Osiyoga ham ko'chib o'tishi ehtimoli ham bor edi. SHuning uchun mintaqada mamlakatlari ayniqsa O'zbekiston xavfsizlik masalasi bo'yicha MDH davlatlari o'zaro hamkorlikni kuchaytirishlari zarurligini ta'kidlagan edi¹. Bu harakatlar natijasida 1992 yil 15 mayda Toshkentda MDHning 6ta ishtirokchisi (Armaniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston) o'rtasida Kollektiv Xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma imzolangan edi. Keyinroq 1993 yildan ular safiga Gruziya va Ozarbayjon ham qo'shildi. Lekin bu tuzilmaning ishtirokchi davlatlarning xavfsizligini ta'minlash borasidagi samarasi unchalik ham ko'rinmadi va asta-sekin u ba'zi davlatlarning boshqa davlatlarga o'z ta'sirlarini o'tkazish mexanizmiga aylana bordi. Bunday qarama -qarshiliklarning mavjudligi natijasida 1999 yilga kelib O'zbekiston bu tuzilmadan chiqqanligini bildirdi, u bilan bir vaqtda Gruziya va Ozarbayjon ham KXSH dagi ishtiroklarini to'xtatishdi. Markaziy Osiyoning Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston kabi davlatlari bugungi kunda ham ushbu tashkilot a'zolari hisoblanishadi.

Mintaqada davlatlarining kollektiv xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan olib borayotgan boshqa bir faoliyatlari Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) doirasida bo'lib, bu to'zilmaga 1996 yilda Rossiya, XXR, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida Shanxayda imzolangan chegara yaqinida harbiy sohada o'zaro ishonchni mustahkamlash to'g'risidagi kelishuvlari orqali asos solingan edi. Keyingi yillarda bu uyushmaga O'zbekiston ham qo'shildi va 2001 yil 15 iyunda Shanxay shahrida bo'lib o'tgan 6 davlat (Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston) rahbarlari uchrashuvida «Shanxay Hamkorlik Tashkiloti» tashkil etilganligi to'g'risidagi Deklaratsiya imzolandi².

Yuqorida keltirib o'tganimiz MOH doirasidan tashqari mintaqada mamlakatlaridan Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston boshqa bir tuzilma Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyati doirasidagi integratsiya jarayonlarining ham faol ishtirokchilari hisoblanishadi. Bu holat qaysidir

¹ Kayumov A. Prioritetnie napravleniya ekonomicheskoy integratsii v regione Tsentralnoy Azii. Stabilnost v TSentralnoy Azii v postkonfliktniy period. Mater. mejd. konfer. (14-15 iyunya 2002 goda, Tashkent). T.: 2002.

² Kayumov A. Prioritetnye napravleniya ekonomicheskoy integratsii v regione Tsentralnoy Azii. Stabilnost v TSentralnoy Azii v postkonfliktniy period. Mater. mejd. konfer. (14-15 iyunya 2002 goda, Tashkent). T.: 2002.

ma'noda Markaziy Osiyo davlatlarini mintaqaviy integratsiyadan chalg'ituvchi omil bo'lmoqda. Mintaqadagi davlatlarning iqtisodiy salohiyatlari, islohotlar borasidagi farqlarni ham integratsiya jarayonlariga tusiqlik bo'layotgan omillardan biri sifatida keltirib o'tish mumkin¹.

Umuman olganda Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiyalashuvi ularga o'z iqtisodiyotini yuksaltirish uchun bir qator qo'shimcha qo'layliklar yaratishi mumkin: mintaqani energetika, mineral va qishloq xo'jaligi xom ashyolari bilan to'liq o'zini o'zi ta'minlanganligi, qo'lay geografik o'rinda, ya'ni Sharq va /arb o'rtasidagi yo'llar kesishuvida joylashganligi, o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yilsa qisqa muddatlarda yuqori darajada tayyor bo'lgan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkonini beruvchi davlatlar iqtisodiyotlarining bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga egaligi, ishchi kuchining arzonligi va mehnat resurslarining anchagina yuqori malakaga egaligi, suv va boshqa tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish imkoniyatining mavjudligini kiritish mumkin. Shu o'rinda hozirgi paytda mintaqaning barcha davlatlari uchun nihoyatda zarur bo'lib turgan chet el investitsiyalari oqimining miqdori ham ko'p jihatdan bu yerdagi integratsiya jarayonlariga bog'liq. Chunki chet ellik investorlarni avvalo, alohida olingan davlatlardan ko'ra mintaqadagi birlashgan bozor ko'proq qiziqtiradi. Mintaqa integratsiyasining yana bir foydali jihati, tashqi ta'sirlardan himoya salohiyatining oshishidir.

3.2. Mavzu yuzasidan dars ishlanmasi

MA'RUZA MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

mavzu	HOZIRGI DAVR GEOSIYOSATI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI
--------------	---

Darsni olib borish texnologiyasi

Vaqt:2 soat.	O'quvchilar soni: 25-30 gacha
--------------	-------------------------------

O'quv mashg'ulotining shakli	Informatsion baxs-munozarali dars
Ma'ruza rejasi	1. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat. 2. XXI asr bo'sag'asida geosiyosiy maqsad va ustivor yo'nalishlarning o'zgarishi.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'quvchilarda Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat, jaxon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar va bu jarayonning asosiy yo'nalishlari, O'zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati to'g'risida tushuncha berish	
Pedagogik vazifa:	O'quv faoliyatining natijasi:
1. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat mohiyatini asoslab berish.	O'quvchilar Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat to'g'risida bilimga ega bo'ladilar.
2. O'zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati	O'zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyatini tushunib yetadilar.
O'qitish usullari va texnika	Ma'ruza, "Piramida" texnikasi, "Tarmoqlash", "FSMU" uslubi
O'qitish vositalari	Kom'hyuter texnologiyasi ("Globallashuv asoslari" fanidan elektron o'quv uslubiy majmua) Slaydlar
O'qitish shakli	Jamoa bo'lib ishlash
O'qitish shart-sharoitlari	Texnik vositalar bilan tahminlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona.
Monitoring va baholash	Kuzatish, og'zaki nazorat, savol-javobli so'rov, o'quv tophiriq.

Darsning texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	O'quvchi
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova)	Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi
	1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shaklini e'lon qiladi]	Yozib oladi
2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa)	2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasi bo'yicha ma'ruza qiladi (2-ilova) Ma'ruza bo'yicha «Qanday?» usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Geosiyosat asoslari asoslari faning bosh maqsad va vazifalari qanday? (3-ilova)	Yozadi, savolga javob beradi.

	2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti rejasi bo'yicha ma'ruza qiladi (4-ilova) va "Tarmoqlash" texnologiyasi bo'yicha talabalarga savol bilan murojaat qilinadi.(5-ilova)	
	2.3. Globallashuv asoslari fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. "FSMU" texnikasidan foydalangan holda guruhlariga topshiriqlar beradi. Guruhlarda ishlashga yordam beradi Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini - qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida ehtibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi.	Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar.
3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi.	Tinglaydilar
	3.2. Talabalarining baholash mezonlarini e'lon qilinadi	Yozib oladi
	3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi (6-ilova)	Javob yozadi
	3.4 Navbatdagi mashg'ulotda ko'riladigan mavzuni e'lon qiladi va "Aqliy xujum" usulida jadvalga mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi.	"Insert" usulida jadvalni to'ldiradi.

HOZIRGI DAVR GEOSIYOSATI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

1-ilova

Reja

1. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat.
2. XXI asr bo'sag'asida geosiyosiy maqsad va ustivor yo'nalishlarning o'zgarishi.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarda Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat, jaxon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar va bu jarayonning asosiy yo'nalishlari, O'zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati to'g'risida tushuncha berish

O'quv faoliyatining natijasi: Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat, jaxon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar va bu jarayonning asosiy yo'nalishlari, O'zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati to'g'risida tushunchaga ega bo'lishadi

2-ilova:

Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat. Geosiyosat asoslari fan sifatida XX asr boshlariga kelib paydo bo'ldi. Uning shakllanish jarayoni jahondagi iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning keskin rivojlanishi davriga to'g'ri keldi. Nafaqat ilmiy doirada, balki siyosatshunoslarning o'rtasida ham «*geosiyosat*» tushunchasiga nisbatan yagona bir ta'rif yo'q. Mavjud ta'riflar u yoki bu darajada bir-birini to'ldirsada, ma'lum jihatdan bir-biriga qarama-qarshi hamdir. O'z navbatida geosiyosatning ob'ekti va sub'ekti haqida ham turlicha qarashlar bor. Albatta, bildirilgan fikrlarga salbiy munosabat bildirish kerak emas, balki ularga geosiyosat ob'ektining murakkabligi bilan izohlanadi. Umuman olganda geopolitika hukmronlik vositalari va ubilan bog'liq bilimlar mohiyati to'g'risida fan sohasi sifatida izohlanadi. Frantso'z geopolitiki Mishel Fushe ingliz va nemis geosiyosati xususida fikr yuritib jahonda iqtisodiy va siyosiy hukmronlikni qo'lga kiritish ustida kurash natijasidagi ehtiyoj natijasida yo'zaga kelganligini ta'kidlaydi. Uning fikricha geopolitika faqatgina uslub hisoblanmasdan, ayni damda tasavvur va amaliyot ham hisoblanadi. Negaki dastlabki geosiyosatchilar sifatida turli davrlarda turli hukmdorlar maydonga chiqishgan. Geosiyosat asoslarini tasavvur sifatida shu ma'noda e'tirof etiladiki qator geosiyosiy maktablar ilgari surgan nazariy muhokamalar dunyo haqidagi tasavvurlarni in'kos ettirgan, u yoki bu davlatning olibborayotgan siyosatini belgilab bergan. Geosiyosat asoslari metod sifatida ilmiy, pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar mohiyatini ifoda etgan.


To'g'ri, XX asrning 90-yillarigacha kommunistik mafkura geosiyosatni imperialistik ekspansiyani asoslash uchun geografik dalil va omillardan (mamlakatning hududi, joylashuvi va b.) foydalanuvchi siyosiy kontsepsiya deb, uning asosini irqchilik, mal'ushtilik, sotsial-darvinizm bilan bog'lab ta'riflash orqali salbiy baholab kelgan. Biroq, keyingi o'n yil ichidagi o'zgarishlar geosiyosatga nisbatan yangicha yondashuvlarni yo'zaga chiqardi va geosiyosat sobiq sovet fani uqtirib kelgan g'oyalarning batamom aksi ekanligini ko'rsatdi.

"*Geosiyosat*" (" *Geosiyosat asoslari*") so'zi garchi yunon tilidagi "*geo*" (er) va "*politicos*" (davlatni boshqarish san'ati) jumllalaridan olingan bo'lsada, o'zbek siyosiy lug'atiga nemis tilidagi "*geopolitik*" so'zidan kirib kelgan desak to'g'ri bo'lar. Qolaversa, bahs etayotganimiz geosiyosat nazariyasi ham avvalo nemis geosiyosiy maktabida tugal shakllanganligi barchaga ma'lum.

3-ilova:

«Qanday» organayzerini to'ldiring

Muhim muammoning yechimini to'lishga yordam beradi va "Qanday?" savoli orqali muammo hal qilinadi.



4-ilova:


Jaxon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar va bu jarayonning asosiy yo'nalishlari.

Hech bir fanni faqat shu fanni o'rganish asosida egallash mumkin emas. Globallashuv asoslari fani barcha fanlar, xususan, falsafa, tarix, iqtisod, dinshunoslik, sotsiologiya, 'sixologiya, ma'naviyat asoslari, madaniyatshunoslik, huquqshunoslik va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq. Dinshunoslik fani yordamida jahonning diniy manzarasi qanday, unda qaysi din yoki konfessiyaning tutgan o'rni, diniy aqida'arastlik, islom xalifaligini tiklash kabi buzg'unchi g'oyalarning mazmun- mohiyag'tini anglash, ogoh bo'lish tuyg'usini shakllantirishga yordam beradi. Siyosatshunoslik fani yordamida hozirgi zamonning mafkuraviy manzarasi, globallashuv jarayonlari, mintaqa va mamlakatimizda xavfsizlikni saqlash va boshqalarga ehtiborni qaratamiz.

2-o'quv tophiri

“Tarmoqlash” usulidan foydalanib, javob to'ing

Muhim muammoning yechimini to'ishga yordam beradi va “Tarmoqlash” usuli orqali muammo hal qilinadi.



Jonlantirish uchun savollar:

1. «Geosiyosat asoslari» tushunchasi, predmeti, ob'ekti va manbalari.
2. Dunyoning mafkuraviy manzarasi deganda nimani tushunasiz?.
3. Dunyoni mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinishlar qanday kechmoqda?.
4. Geopolitik maqsad nima?
5. O'zbekistonning geosiyosiy imkoniyatlari qanday?

XULOSA

Geosiyosat va mafkura dialektik aloqadorlikda ekanligini nazariy va falsafiy jihatdan yoritib berish va O'zbekistondagi bu borada paydo bo'lgan muammolarni yechimini topish bizning yosh avlodning oldida turgan katta vazifalardan biridir.

Yuqorida geosiyosat va mafkura o'zaro dialektik aloqadorlikda ekanligini ko'rsatib beruvchi bir necha dalillar keltirdik. Ya'ni xalq ommasi geosiyosatni anglab, tushunib yetishi, u bilan hamohang borish uchun, albatta milliy mafkura kerakligini asoslashga harakat qildik. Geosiyosatning o'zi ham turli mafkuralar natijasi hisoblanadi. Umuman, siyosat va mafkura egizaklar kabi bir-birini taqozo etadi. Mafkuralarning barchasi geosiyosat muammolari bilan uzviy ravishda bog'lanadi. Chunki har qanday hokimiyat va siyosiy partiya o'z maqsad-muddaolariga keng xalq ommasini ishontirish uchun, ta'sirchan mafkuraga muhtoj bo'ladi.

Noosfera davri odam-olam munosabatlarida ilmiy haqiqatlarga asoslangan yangicha dunyoqarash, shu asosda yangicha tafakkur va turmush tarzi shakllanishini taqozo etmoqda. Ushbu jarayonda geosiyosat va mafkurada ham yangicha yondashuvlar qaror topishi, insoniyat nihoyat milliy, irqiy, diniy va boshqa negizda muqarrar chiqadigan ziddiyatlarni zo'ravonliklarsiz, urushlarsiz, terrorlarsiz, tarafkashliklarsiz xalq etish bosqichiga o'tishiga umid qilish mumkin. Ana shundagina ilmiy-texnika va texnologiya muvaffaqiyatlari va globallashuv jarayonlaridan har bir elat, millat, mintaqalar xalqlari va butun bashariyat manfaatlari yo'lida to'la-to'kis foydalanish imkoniyati vujudga kelishi mumkin. Bu ulug' maqsadlarga erishishda mafkura vositalari, shakllari, uslublari haqida yoshlarimiz zarur bilimga ega bo'lishlari tarixiy zaruriyatdir.

“Hozirgi davrdagi tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, odamzot kundalik shaxsiy kuzatishlari, hayotiy tajribasi, ijtimoiy-siyosiy qarashlariga muvofiq keladigan g'oyalargagina ishonar ekan, bunda mantiqiy bog'lanishlar ifodasi bo'lgan fikrlarga nisbatan kundalik ong darajasidagi o'tkinchi qarashlarga qiziqish katta bo'ladi. Agar voizning bilimi chuqur, notiqlik mahorati yuksak bo'lsa, kundalik ong darajasida keng yoyilgan fikrlarga tayanib turib, mantiq kuchi bilan o'z qarashlariga ishonтира oladi va tinglovchini jiddiy o'ylash va mulohaza qilib ko'rishga da'vat etib, ilmiy-falsafiy jihatdan asoslangan fikrlarga ishonch tuyg'usini vujudga keltira oladi. Demak, notiq yoki voiz nutqida ishlatiladigan, jamiyat va xalq manfaatlarini ifodalovchi ijtimoiy ramzlar – so'zlar, iboralar, shiorlar, narsa va hodisalar o'sha tinglovchi talab-xotirasi, orzu-umidlari va manfaatlariga bevosita aloqador bo'lgandagina ta'sirchan va ishonchli bo'ladi.

Hozirgi sharoitda xavfsizlikka yangicha qarash kerak bo'ladi. O'zini-o'zi tovar va xizmatlar bilan ta'minlab chetga qaram bo'lmaslik qoidasini faqat resurslari ko'p va ichki bozori keng bo'lgan yirik mamlakatlarga qo'llash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovni asarlari va nutqlaridagi g'oyalardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining bayonotida ilgari surilgan qoidalardan, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillaridan kelib chiqqan holda mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda quyidagi vazifalarga asosiy e'tiborni kuchaytirish zarur:

- mintaqada haligacha mintaqaviy xavfsizlik tizimi yo'lga qo'yilmagan. Afg'onistondagi voqealar, Pokistondagi rejim, Eronni turli xil siyosiy qarashlari Markaziy Osiyoni asosan o'zaro hamkorlikdagi harakati harbiy xavfsizlikni va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi mumkin.

- Markaziy Osiyodagi davlatlarning Afg'oniston, Pokiston, Eron bilan o'zaro manfaatli, hurmat va to'g'ri munosabatlarining yo'lga qo'yish kerakki bu davlatlararo va xalqlararo mojarolari kelib chiqishining oldini oladi.

- Juda ko'p hukumatlarda harbiy sohada qudratli bo'lishga tashnalik bor yoki atom quroliga ega bo'lish va shu orqali atrof dunyoni qo'rqitish g'oyalari mavjud. Biz mintaqada atrofida «agar seni sevishmasa, unda sendan qo'rqishlari kerak», degan aqidadan voz kechishimiz kerak.

-Markaziy Osiyo xalqlari mintaqada geosiyosiy, geomadaniy, geoiqtisodiy yaxlitlikni vujudga keltirishlari zarur. Fikrimizcha, Markaziy Osiyoda geosiyosiy yaxlitlikni vujudga keltirish mintaqadagi ko'plab xavf va tahdidlarni bartaraf etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

I. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2007.
2. O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» (Yangi tahrirda) gi Qonuni. –T.: «Adolat», 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust. /«Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». –T.: «Sharq», 1998.
4. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida» gi Qonuni.1997 yil 29 avgust. / «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». –T.: «Sharq», 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida»gi Farmoni. 1997 yil 6 oktyabr. / «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». –T.: «SHarq», 1998.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida» gi qarori. 2006 yil 25 avgust. /«Xalq so'zi», 2006 yil 26 avgust.
7. Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. /«Inson Huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar (To'plam). O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri prof. A.H.Saidov. –T.: «Adolat», 2004.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari:

1. Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar, 1-jild. –T.: «O'zbekiston», 1996.
2. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Asarlar, 2-jild. –T.: «O'zbekiston», 1996.
3. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar, 3-jild. –T.: «O'zbekiston», 1996.
4. Karimov I. A. Bunyodkorlik yo'lidan. Asarlar, 4-jild. –T.: «O'zbekiston», 1996.
5. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. Asarlar, 5-jild. –T.: «O'zbekiston», 1997.
6. Karimov I. A. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Asarlar, 6-jild. –T.: «O'zbekiston», 1998.
7. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar, 7-jild. –T.: «O'zbekiston», 1999.
8. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Asarlar, 8-jild. –T.: «O'zbekiston», 2000.
9. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. Asarlar, 9-jild. –T.: «O'zbekiston», 2001.
10. Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. Asarlar, 10-jild. –T.: «O'zbekiston», 2002.
11. Karimov I. A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. Asarlar, 11-jild. –T.:«O'zbekiston», 2003.

12. Karimov I. A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq.. Asarlar, 12-jild. –T.:«O'zbekiston», 2004.
13. Karimov I. A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. Asarlar, 13-jild. –T.:«O'zbekiston», 2005.
14. Karimov I. A. Parlament – jamiyat hayotining ko'zgusi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishida so'zlangan nutq. 2005 yil 27 yanvar. Asarlar, 13-jild. –T.: «O'zbekiston», 2005.
15. Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2005 yil 28 yanvar. Asarlar, 13-jild. –T.: «O'zbekiston», 2005.
16. Karimov I. A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. 14-jild. –T.: «O'zbekiston», 2006.
17. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –T.:«Ma'naviyat», 2008.
18. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: “O'zbekiston”, 2010.
19. Karimov I.A. “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” T.: O'zbekiston 2012 yil.

III. Asosiy adabiyotlar

1. Quronov M. Milliy tarbiya. Toshkent, Ma'naviyat, 2007.
2. Politologiya. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir prof. I. Ergashev. –T.: «O'AJBNT» Markazi, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.
3. Yusupova G.X., Jabborov X.J., Qosimova X.X. Siyosat nazariyasi. Darslik. – T.: «Universitet», 2003.
4. Ramazonov I., Mo'minov E. Politologiya. Darslik. –T.: «Adolat», 1997.
5. A'zamxo'jaev A. va boshq. Politologiya asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: «Universitet», 1992.
6. Yusupova G., Shoyusupova G', Bugaeva G. va boshq. Politologiya. Ma'ruzalar matni. 1-2 qism. –T.:«Universitet», 2000.
7. Sulaymonov X. Boydadaev M. Siyosatshunoslik. O'quv qo'llanma. Namangan, «Namangan», 1995.
8. Sharipov F. Siyosatshunoslik. O'quv qo'llanma. –T.: «O'zbekiston», 1992.
9. Odilov Q., Karimov T. Politologiya. Qisqacha izohli lug'at. Andijon, «Andijon», 1996.
10. Nosirxo'jaev S., Safarboev M., Sultonov K. Siyosatshunoslik fanidan ko'rgazmali qo'llanma. –T.: «O'qituvchi», 1997.
11. Nosirxo'jaev S. Siyosatshunoslik fani bo'yicha qisqacha lug'at – ma'lumotnoma. –T.: «O'qituvchi», 1997.
12. Mirhamidov M. O'zbekiston: demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida. –T.: «Universitet», 2003.
18. Nabiev G'. O'zbekiston demokratik jamiyat qurish yo'lida. O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston Milliy universiteti, 2005.
19. Ziyomuhamedov V., Ziyomuhamedova S., Qodirova S. “Ma'naviyat asoslari” – T.: “O'zbekiston” nashriyoti, 2000 yil.
20. S.Otamurodov, S.Xusanov. Ma'naviyat asoslari. T. 2003
21. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Oliy ta'lim muassasalari uchun qo'llanma. – T., “Yangi asr avlodi”, 2001 yil.

22. Ergashev I. va boshqalar. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fani bo'yicha darslik. T., "Akademiya", 2005 yil.
23. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. Toshkent Islom universiteti. 2006

IV. Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Abbosxo'jayev O. Mustaqillik nega muqaddas. –T.: «O'zbekiston», 2004.
2. Abdullayev I. Muqaddas dinimizga isnod keltirmaylik (Maqolalar). Namangan, «Namangan», 1999.
3. Abdullayev Yu. Vahhobiylilik ildizlari. Farg'ona, «Farg'ona», 1998.
4. Abdullajonov O. Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi, mohiyati va O'zbekistonga kirib kelishi. –T.: «Akademiya», 2000.
5. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. 1-2 kitob. –T.: «Movarounnahr», 2003.
6. Abdurahmonov A., Boydadaev M., Bozorov E. Din va siyosat. Namangan, «Namangan», 2001.
7. Azizxo'jayev A.A. Demokratiya – xalq hokimiyati demakdir. –T.: «O'AJBNT» Markazi, 1996.
8. Azizxo'jayev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. –T.: «Akademiya», 2001.
9. Boboyev H., Normatov K. Milliy davlatchilik haqida. –T.: «Yozuvchi», 1999.
10. Gafarli M.S., Kasaev A.CH. Rivojlanishning o'zbek modeli: tinchlik va barqarorlik – taraqqiyot asosi. –T.: «O'zbekiston», 2001.
11. Jo'rayev N. Xalqaro terrorizm va mintaqaviy mojarolar. Ma'ruza matni. –T.: «Ma'naviyat», 2001.
12. Jo'rayev N. Yangilanishlar kontsepsiyasi: yaratilishi, evolyutsiyasi va amaliyoti. –T.: «Ma'naviyat», 2002.
13. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: «O'zbekiston», 2000.
14. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining g'oyaviy asoslari. Mas'ul muharrir D.A. Alimova. –T.: «SHarq», 2001.
15. Mustaqillik: Izohli ilmiy – ommabop lug'at. –T.: «SHarq», 2006.
16. Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki Siyar-ul-mulk. –T.: «Adolat», 1997.
17. Obidov R., Abdullaev S., Azimov A. Hidoyat va zalolat. –T.: 2004.
18. Odilqoriyev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. –T.: «Sharq», 2002.
19. Odilqoriyev X.T., G'oyibnazarov Sh.G'. Siyosiy madaniyat. –T.: O'zR IIV Akademiyasi, 2004.
20. Ogoh bo'laylik (To'plam). Mas'ul muharrir prof. A. Azizxo'jaev. –T.: «Akademiya», 1999.
21. Otamurotov S. Globallashuv va millat . T-2008
22. Ochildiyev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. –T.: «O'zbekiston», 2004.
23. Taraqqiyot va hamkorlik yo'llarida. O'zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasi. –T.: «O'zbekiston», 1993.
24. Tarix ortga qaytmaydi (To'plam). Muharrirlar A.A'zamov, K.Bo'ronov. –T.: «O'zbekiston», 2004.
25. Tulenov J., G'afurov Z. Mustaqillik va milliy tiklanish. –T.: «O'zbekiston», 1996.
26. Ubaydullayev U. Xalqaro terrorizm: tarixi va zamonaviy muammolari. –T.: «Universitet», 2002.
27. Ergashev I. Siyosat falsafasi. –T.: «Akademiya», 2004.
28. Ergashev Sh. Demokratik g'oya va boshqaruv tamoyillari. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002.

V. Elektron ta'lim resurslari:

1. ww. tdpu. uz
2. www. Ziyonet. uz
3. www. edu. uz

4. [www. ma'naviyat. uz](http://www.ma'naviyat.uz)
5. www. google.uz
6. www.gov.uz

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Rasmiy adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., "O'zbekiston" nashriyoti, 2009 yil.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat" nashriyoti. 2008 yil.
3. Karimov I.A. Asarlar. 6-jild. T., "O'zbekiston" nashriyoti, 1998 yil..
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr busagasida: xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari, tarakkiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston» nashriyoti, 1997 yil.
5. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., "O'zbekiston" nashriyoti. 2000 yil.
6. I.A.Karimov. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik. T, "O'zbekiston" nashriyoti, 1999 yil..
7. Karimov I.A.Jamiatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin // Biz kelajagimizni o'z qo'limitz bilan quramiz. T., «O'zbekiston» nashriyoti, 1999 yil.

8. I.A.Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. – T., “O'zbekiston” nashriyoti, 1998 yil..
9. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.: “O'zbekiston”, 1999 yil.

Falsafiy adabiyotlar.

10. Karimov Ibrohim. Noosfera: geosiyosat va mafkura. T., “FAN” nashriyoti, 2007yil.
11. Tulenov.J. Falsafa. T., «Fan» nashriyoti, 2001 yil.
12. Qobilov SH.R. Globallashuv va xavfsizlik. T., “Akademiya” nashriyoti. 2006 yil.
13. Azroyants E.A Globalizatsiya: katastrofa ili put' k razvitiyu? Sovremennyye tendentsii mirovogo razvitiya i politicheskie ambitsii. M., 2002 yil
14. Globalizatsiya v Rossii. Problemy demokraticeskogo razvitiya. – M., 2004 g.
15. Krasin Yu.A. Razmyshleniya o Rossiyskoy demokratii v globalizuyemom mire: rets.// Mirovaya ekonomika i mezhdunarodnyye otnosheniya. 2004 g - №12. – s 64.
16. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., “O'zbekiston” nashriyoti. 2000 yil.
17. Tulenov J. Milliy mafkura: maqsad va yo'nalishlari, hayotga tatbiq etish yo'llari. T, “O'zbekiston” nashriyoti, 1999 yil.
18. Imomnazarov M. Islom Karimovning. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” kitobi bo'yicha ma'ruza matnlari.2-ma'ruza.
19. Gadjeiev K.S. Vvedenie v geopolitiku.
20. Abbosxo'jaev O. Mafkura poligonlarida olishuv. T., “Akademiya” nashriyoti. 2007 yil.

Ilmiy-ommabop adabiyotlar.

21. “O'zbekiston ovozi” gazetasi, 1999 yil.
22. “Tafakkur” jurnali 2008 yil 4-son .
23. “Tafakkur” jurnali 2006 yil 1-son .

Lug'atlar

24. Falsafa: Qomusiy lug'at. T., “O'zbekiston Faylasuflar milliy jamiyati”, 2004 y..
25. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. T., “SHarq” nashriyoti. 1998 yil

